جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 12-iyul
№ 29(29)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

TADQIQOT



Navoiyshunoslik va qo‘lyozma ilmi

(6-sahifada o‘qing).

TAMADDUN

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI – KELAJAKKA YUZLANGAN MASKAN




(2-sahifada o‘qing).

MUTOLAA

Xayriddin SULTON

DOVRUG‘I OLATOG‘DAN OSHGAN ADIB



1

Davrimizning atoqli yozuvchisi, davlat va jamoat, madaniyat arbobi, mohir diplomat Sulton Rayevning nomini yurtimiz ziyolilari va kitobxonlariga ortiqcha ta’riflab o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Zero, o‘zbek xalqining samimiy va ulkan do‘sti bo‘lgan bu betakror ijodkor mamlakatimizdagi turli-tuman xalqaro anjumanlar, madaniy forum va uchrashuvlar, tanlov va ko‘rgazmalarning doimiy ishtirokchisi, aksariyat hollarda esa ularning tashkilotchisi sifatida ham qizg‘in faoliyat olib borishini jamoatchiligimiz yaxshi biladi.

Shunday bo‘lsa-da, kitobxonlarga u kishining hayot yo‘li va ijtimoiy faoliyati haqida kengroq ma’lumot berish maqsadida, bizningcha, avvalo, adibning tarjimayi holini, tug‘ilib o‘sgan makoni hamda u shakllangan adabiy muhitni eslatib o‘tish o‘rinli bo‘lsa kerak.

2

Sulton Rayev 1958-yil 13-iyulda O‘sh viloyati, Qorasuv tumani, Jo‘sh qishlog‘ida tug‘ilgan. Qirg‘iziston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan.

Mehnat faoliyatini “Qirg‘iziston madaniyati” gazetasida muxbirlikdan boshlagan. Shundan so‘ng, “Asaba” (“Bayroq”) gazetasida bosh muharrir o‘rinbosari, “Qirg‘iz ruhi” gazetasi bosh muharriri vazifalarida ishlagan.

(Davomi 4-5-sahifalarda).

TERAN ILDIZLAR

Maqom – ruh ozig‘i



Keyingi vaqtlarda yurtimizda milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilyapti. Asrlar davomida ne-ne atoqli nozimlar, olimlar-u hofizlar, sozandalar-u navozandalarning sermashaqqat mehnati, ijodiy tafakkuri tufayli ravnaq topib, bizning davrimizda ham ijro etib kelinayotgan bu noyob san’at faqatgina yurtimiz va mintaqa mamlakatlarida emas, balki dunyo qamrovida ham katta e’tibor va e’tirof qozonib kelmoqda.

Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli badiiy rahbari, taniqli sozanda va bastakor, O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim ISMOILOV bilan suhbatimiz ana shu muhtasham maqom san’ati xususida bo‘ldi.

(Davomi 3-sahifada).

E’TIROF

Samimiy muloqotlar shukuhi

Eron qadimiy tarix va ulkan hududga ega bo‘lgan mamlakat hisoblanadi. Tabiiyki, bizning mamlakatimiz yaqin atrofidagi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar barobarida madaniy munosabatlar borasida ham boy solnomaga ega. Buyuk ipak yo‘li faqat tijorat maqsadidagina emas, balki madaniy aloqalar rivoji uchun muhim kommunikatsiya vositasi vazifasini o‘tagan.

Bugun ham ana shu ko‘hna an’ana O‘zbekistonda zamonaviy asoslarda davom ettirilayotganida o‘ziga xos ramziy ma’no bor. Zotan, turli davlatlardan kelgan san’atkorlar bilan uchrashib, yuzma-yuz muloqot qilish, ularning san’atidan bahramand bo‘lish dillarga o‘zgacha huzur, ajib harorat bag‘ishlaydi. Shu ma’noda, biz O‘zbekistonning go‘zal va tarovatli maskanlaridan biri sanalgan Zomin tumanida o‘tkazilgan Xalqaro maqom anjumanida ishtirok etganimizdan behad xursandmiz. Ayniqsa, bizning “Fors” ansamblimiz II Xalqaro maqom san’ati anjumani g‘olibi degan yuksak sharafga loyiq deb topilgani barchamizga juda katta g‘urur va xursandlik bag‘ishladi.

Barchamiz O‘zbekistondan unutilmas taassurotlar bilan yurtimizga qaytdik. Ana shunday ajoyib san’at anjumanida ishtirok etish imkoniyatini yaratib bergani uchun O‘zbekiston xalqi va Prezidentiga chin dildan tashakkur aytamiz.

Ali Asg‘or ARABSHOHIY,
Eron davlatining “Fors” ansambli solisti,
II Xalqaro maqom san’ati anjumani g‘olibi

12-IYUL – ABDULLA AVLONIY TAVALLUD TOPGAN KUN



“Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...”

yoxud Abdulla Avloniy ma’rifati

O‘zbek jadid allomalarining hayot yo‘li, ijtimoiy faoliyati ibratli, so‘zlari hikmatli. Millat va Vatan, ma’rifat va ma’naviyat ularning dardi, qayg‘usi, amali va a’moli edi. Ular shu el-yurt istiqboli uchun dard chekdi, qayg‘urdi, g‘amga botdi, o‘yga toldi. Ular yangi usul ta’lim maktablari ochib, farzandlarini savodli qildi, fikrini o‘stirdi, dunyoni tanitdi. Ular teatrda tomoshalar qo‘yib, ijtimoiy, maishiy muammolarni sahnaga ko‘chirdi va o‘sha “ibratxona” orqali olamga ibrat nazari bilan qarashni tashviq qildi. Badiiy asarlarida kundalik turmush muammolarining adabiy manzaralarini aks ettirdi.

Shunday ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan mo‘tabar jadid allomalar qatorida Abdulla Avloniy ham bor. Avloniyning hayoti va ijod yo‘li barcha maslakdoshlari kabi turli-tuman va serqirra. O‘z e’tirofiga ko‘ra, u yoshligida hunar o‘rganadi; “g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari” bilan shug‘ullanadi. Turmush tashvishlarining naq o‘pqonida yashaydi. Keyin Abdulla Avloniy matbuotchi, muallim, adib, jamoatchi, elchi, jurnalist sifatida taniladi. 1907-yili “Shuhrat” gazetasini nashr ettiradi. Gazetaning o‘nta soni chiqar-chiqmas taqiqqa uchraydi.

1913-yili “Turon” teatr truppasini tuzadi. Sahnada o‘zi rollar ijro etadi, ya’ni mushaxxis – aktyorlik ham qiladi. Hayotdan olgan saboqlaridan sahnada, badiiy asarlari uchun tanlagan obrazlarida foydalanadi. Uning “Hijron” taxallusi bilan e’lon qilgan she’rlarida da’vatkorlik, yaxshilikka chaqiruv, jaholatni qoralash ohanglari kuchli.

“Yaxshi birla yursa, har kim
maqsudi hosil bo‘lur,
Yursa nodonlar ila,
bir kun borib qotil bo‘lur.
Kattalar qilgan nasihatni
kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq
bir beadab johil bo‘lur”.

(Davomi 7-sahifada).

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI – KELAJAKKA YUZLANGAN MASKAN

Insoniyat taraqqiyoti asosini, shubhasiz, ilm-fan, ma’rifat tashkil qiladi. Bizning ajdodlarimiz bu borada dunyoga o‘z so‘zini aytgan va bugun ham ularning munosib izdoshlari bor. Binobarin, Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida barpo etilayotgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda xalqimizning madaniy, ilmiy-ma’rifiy yuksak salohiyatining yaqqol ifodasidir. Umumiy maydoni 7,4 gektarni tashkil etadigan ushbu muhtasham markaz chin ma’noda Uchinchi Renessans – Yangi O‘zbekiston g‘oyasini to‘laqonli ko‘rsatib beruvchi, o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra esa dunyoda kam uchraydigan mega loyihadir. Mazkur inshootni barpo etishda mohir arxitektor va muhandislar, usta-hunarmandlar, turli yo‘nalishlarda ilmiy faoliyat olib borayotgan olim-u ulamolar, rassom va san’atshunoslar, jamoat vakillari quruvchilar bilan bir tan-u bir jon bo‘lib ish olib borayotganligi alohida tahsinga sazovordir.



Joriy yilning 4-5-iyul kunlari mamlakatimiz olimlari ishtirokida poytaxtimizda o‘tkazilgan “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” mavzusidagi forum yurtimiz ilmiy-ma’rifiy hayotida yana bir o‘ziga xos tarixiy voqea bo‘ldi. U boy o‘tmishimiz va milliy-madaniy merosimizni chuqur o‘rganish, ayniqsa, Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan ishlarni har tomonlama tahlil qilish, bu borada ilmiy asosga ega bo‘lgan zarur xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda, markaz faoliyatini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Ta’kidlash joiz, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini aks ettiradigan mazkur markazda bugun ishlar yanada qizg‘in tus olgan. Forumda majmuaning tashqi-ichki me’moriy yechimlaridan tortib, ayniqsa, uning mazmun-mohiyati qanday bo‘lishi, bunda qaysi jihatlarga ko‘proq ahamiyat qaratish lozimligiga yana bir bor e’tibor qaratildi. Yurtimizning barcha hududlaridan jami 500 dan ortiq olimlar, xususan, fan arboblari, akademik-professorlar, diniy soha vakillari, xorijiy ekspertlar, yosh tadqiqotchilar 9 ta sho‘baga bo‘lingan holda ish olib borishdi.

Bo‘lajak Qur’on zali Islom sivilizatsiyasi markazining qalbi hisoblanadi.

Forumda ushbu yo‘nalishda taqdim etilgan loyihalarni din ulamolari, islomshunos olimlar chuqur muhokama qilishdi. Zal eksponatlarini joylashtirish bilan bog‘liq masalalarni yana bir bor ko‘rib chiqishdi. Shuningdek, forumda “Islomdan avvalgi davrda Markaziy Osiyoning davlatchilik tarixi” mavzusi bo‘yicha foto va video materiallar yaratish, kitob-albomlarni nashr etish, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilish masalalari bo‘yicha ham qizg‘in muhokamalar bo‘lib o‘tdi. Islomning Markaziy Osiyoga yoyilishiga bag‘ishlangan sho‘bada esa Markaziy Osiyo olimlarining olamshumul kashfiyotlari, Movarounnahr ilmiy markazlari va boshqa muhim loyihalar olimlarning diqqat markazida bo‘ldi. Bu borada ham nufuzli olimlar tomonidan zarur tavsiyalar berib o‘tildi.

Forumda ta’lim bo‘limi taqdimoti ham o‘ziga xos tarzda bo‘lib o‘tdi. Bu sho‘ba ma’qullandi. Shuningdek, ilm-fan ekspozitsiyasiga oid 25 ta, shaharsozlik va me’morchilikka doir 10 ta, san’at va badiiy hunarmandchilik ekspozitsiyasini shakllantirish yuzasidan 31 ta, Uchinchi Renessans – Yangi O‘zbekiston bo‘limi bo‘yicha 40 ta, ta’lim bo‘limiga oid 42 ta taklif inobatga olinadi.

“Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” forumining ikkinchi kuni Simpoziumlar saroyida yalpi yig‘ilish ko‘rinishida davom etdi. Mamlakatimizdagi taniqli fan arboblari, yetuk olimlar, tadqiqotchilar ishtirok etgan ushbu Respublika forumini chin ma’noda O‘zbekistondagi noyob megaloyihaga bag‘ishlangan anjuman deyish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov forum yig‘ilishida mashhur diniy sulola – Boboxonovlar kolleksiyasiga oid qo‘lyozma va toshbosma kitoblar katalogini tayyorlash, shuningdek, O‘zbekistonda muzey ta’limi va boshqa muhim loyihalar muhokama etildi. Anjumanda Ilm-fan bo‘limi taqdimotiga ham alohida o‘rin berildi. Unda “Markaziy Osiyo qo‘lyozmalari kodikologiyasi” nomli 10 jildlik to‘plam, temuriylar davri kitoblarining muqovalari, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida markaziy osiyolik ayollarning o‘rni kabi mavzu va loyihalarning taqdimoti, ularning muhokamasi yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Shaharsozlik va me’morchilik tarixi bo‘limiga tegishli sho‘ba yig‘ilishida yurtimiz shaharlari va me’morchiligining rivojlanish tarixi, O‘zbekistonning tabarruk ziyoratgohlariga oid integratsiyalashgan elektron portal yaratish tashabbusi ilgari surildi.

San’at va badiiy hunarmandchilik bo‘limi tomonidan esa har bir eksponat, xalqaro landshaft haykaltaroshligi, kulolchilik biyennalesi, turli kitob-albomlar nashri, tanlab olinayotgan loyihalar ilmiy asoslangan aniq reja bo‘yicha shakllantirilib, zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etilishi masalalari muhokama qilindi. Uchinchi Renessans – Yangi O‘zbekiston hamda An’analar sho‘ba yig‘ilishi ham o‘ziga xos bahs-munozaralarga boy bo‘ldi. Har bir olimning taklif-tavsiyalari o‘rganib chiqildi. Sivilizatsiya tarixini davrlashtirish masalalari o‘rtaga tashlandi. Forumda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 9 ta paviloni bilan birga davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan barpo etilayotgan Imom Buxoriy majmuasidagi Innovatsion muzey konsepsiyasi ham olimlar tomonidan ko‘rib chiqildi.

O‘tkazilgan forum va seminarlar davomida ishtirokchilar tomonidan Islom sivilizatsiya markazining ilmiy-tarixiy konsepsiyasi hamda uning tarkibidagi muzey ekspozitsiyasini shakllantirishga bag‘ishlangan jami 50 dan ortiq ma’ruzalar tinglandi. Forumning yakuniy xulosalariga ko‘ra, 600 ga yaqin taklif va mulohazalar bildirildi. Jumladan, Qur’on zali bo‘limini takomillashtirish bo‘yicha jami 44 ta taklifdan 28 tasi ishtirokchilarini qutlar ekan, Islom sivilizatsiyasi markazi davlatimiz rahbarining doimiy diqqat-e’tiborida ekanini, ilm ahlining oldida Yangi renessans poydevorini mustahkamlashdek umummilliy va sharafli vazifa turganini alohida qayd etib o‘tdi.

Yalpi majlisdan so‘ng o‘tkazilgan seminarlar bo‘yicha muhokama va moderatorlarning sharhlari tinglandi. Forum natijalari bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tomonidan tayyorlangan yakuniy hujjat muhokama etildi va tasdiqlandi. Anjuman yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” mavzusidagi respublika olimlari, yoshlar va jamoatchilik vakillari, forum ishtirokchilarining Murojaati qabul qilindi.

Murojaat yakunidagi: “Biz, Forum ishtirokchilari, Islom sivilizatsiyasi markazini ilm va ma’rifat, yangi g‘oyalar ishlab chiqadigan chinakam aql markaziga aylantirish yo‘lida Sizga yordamchi va ko‘makchi bo‘lib, chin dildan mehnat qilishga, o‘zimizning bor bilim va tajribamiz, iste’dodimizni shunday ulug‘ ishga bag‘ishlashga va’da beramiz”, degan so‘zlar yurtimizdagi barcha olimlar, fan arboblari, ijodkor ziyolilar, yosh tadqiqotchilar, turli soha vakillarining dil izhori sifatida yangradi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz ilmiy va madaniy jamoatchiligi bir tan-u bir jon bo‘lib, milliy ma’naviyat va ma’rifat ramzi bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazini har tomonlama mukammal milliy va xalqaro talablar doirasida barpo etishga bel bog‘ladilar. Inshootning qurib bitkazilishi va ishga tushirilishini xalqimiz intizorlik bilan kutmoqda. Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning qariyb to‘rt ming yillik tarixidan so‘zlaydi. Muhtasham donishmandlik uyi vazifasini o‘taydigan bu markazga dunyo ahli havas bilan boqmoqda.

Shuhrat HAYITOV,
“O‘zbekiston tarixi” telekanali direktori,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MUNOSABAT

YER HAMMANI BOQADI...

“Boyota”ga ham aylantiradi



Usta Xudoyshukurni yaxshi taniyman – bog‘fermer bo‘lgan vaqtimda u ishlayotgan fermer xo‘jaligining dalasi bilan chegaradosh edik.

O‘tgan yil yakunida gurunglashib qolganimizda shu inson qiziq gap aytdi: “Qo‘shnilarim yil bo‘yi o‘zga ellarda ishlashadi. Qishda uyga qaytishganida bir oy ichida topgan-tutganini sarflab, ketishga yo‘l kiraga pul izlab yurishadi”.

Xudoyshukurdan fermer xo‘jaligining oddiy ishchisi sifatida bir mavsumda qancha daromad topishini so‘radim. U dehqonchasiga hisob-kitob qilib tashladi:

“Fermer har oy o‘rtacha bir yarim million so‘mdan maosh yozadi. Shu pul ro‘zg‘orim qozonini bemalol qaynatadi. Bug‘doy o‘rimi vaqtida uch tonna bug‘doy beradi. Oilamga yarim tonnasi yetadi, qolgan ikki yarim tonnasini sotaman. Bu yil kilosi to‘rt ming so‘mdan ketdi. Bug‘doydan bo‘shagan maydonlardan bir gektar yerni sholi ko‘chatlashim uchun ajratadi. Fermer yerni surib, tekislab maydonni taxt holga keltirib, kamiga ko‘chat ham beradi. Har sotix yerni qirq besh ming so‘mdan ko‘chatlataman. Ko‘chatlaganlarga issiq ovqat va boshqa xarajatlar jami besh million so‘mga tushdi. Shu maydondan o‘rtacha olti yarim tonna sholi olaman. Yarim tonnasi ro‘zg‘orga, qolganidan chiqqan uch tonnadan oshiqroq guruchni qirq million so‘mga sotaman. Ana endi daromadimni o‘zingiz hisoblayvering!”

Xomaki hisob-kitoblarimga qaraganda, Xudoyshukur bir mavsumda sof qirq besh million so‘m daromad topgan. Agar maoshi, ro‘zg‘or qozoniga tushganlarini ham qo‘shib hisoblasak – bir yilda yetmish million so‘mdan ortiqroq pul kirgan ro‘zg‘origa. Bu har oyda o‘rtacha besh milliondan ko‘proq daromad topganini bildiradi.

Ha, darvoqe, ro‘zg‘orida ikki bosh qoramoli ham bor. Ayoli parvarishlagan (yem-xashagi tekin) qoramollar ro‘zg‘orini yil bo‘yi sut-qatiq bilan ta’minlashi bir yoq, har ikki yilda bozorga ho‘kiz yoki g‘unajin chiqarib sotishi bir yoq.

Fermerda o‘n ikki oy davomida bosim ish ko‘pi bilan yuz kuncha bo‘ladi – ekish, yig‘im-terim mavsumlarida. Qolgan vaqtlari ekinlarni sug‘orish, o‘g‘itlash va nazorat qilish bilan o‘tadi. Butun qish bo‘yi (fermer dalalarida qish uyqusiga ketgan vaqti) va bahor-u yozda bo‘sh vaqtlari duradgorlik bilan shug‘ullanishi – qo‘li gul ustaligi, bu hunaridan ham salmoqligina pul topishini aytib o‘tirmay...

“Yerni boqsang – yer seni boqadi” degan otaso‘zimiz Xorazm dehqonlari uchun to‘qilganday go‘yo. Vohada har bir qarich yer e’tiborda – turli xil dehqonchilik ekinlari ekiladi. Yana deng, bir maydondan yil davomida ikki va hatto uch marta hosil ko‘tarish odatiy hol bo‘lib qolgan.

Besh yil oldin xonqalik nafaqadagi o‘qituvchi ayol davlat mukofoti bilan taqdirlanganini eshitib hayratlanganimiz bor. Sababi, davlat mukofoti berish haqidagi Farmonda bu ayol “tomorqa egasi” sifatida qayd qilingan edi.

Qo‘shni Olaja qishlog‘ida yashovchi nishondor ayolni yo‘qlab borib, uning davlat mukofoti olishga arzigulik ishlaridan yoqamizni ushlaganmiz. Shaxsiy tomorqasida olti sotix yerda issiqxona qurgan ayol bir mavsumda uch marta hosil ko‘tarib, o‘rtacha 100 million so‘m daromad olarkan. Birinchi hosili – qish oyog‘ida ekkan pomidor, bodring, karam ko‘chatlari. Ko‘chatdan bo‘shagan issiqxonaga ertapishar sabzavot ekarkan. Sentyabr oyida tabiiy o‘g‘it bilan boyitilgan issiqxonaga ekkan pomidor va bodring hosilini yangi yil bayrami dasturxoniga chiqararkan.

“Issiqxonada ish og‘ir emas. Ertalab choy qaynaguncha bir soatlar ekin parvarishi bilan shug‘ullanamiz. Bolalarim maktabga va ishlariga ketgunlaricha menga yordam beradi. Qish sovug‘ida esa issiqxonada harorat yetarlicha bo‘lishini muntazam nazorat qilishadi. Ishimiz – shu”.

Tajribali o‘qituvchi-dehqon ayolning biror farzandi chetga ketib ishlagani yo‘q. Barchasi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan, sevimli kasblarida ishlayapti.

Tog‘amizning o‘g‘li usta Rajab o‘n yil oldin 30 sotix maydonni tender usulida olib, tokzor barpo qildi. Ekkan mahalliy toifi navli uzumlar uch yilda hosilga kirdi va muttasil yaxshigina daromad keltiryapti.

“To‘liq hosilga kirgan 30 sotix yer mavsumda 10 tonnagacha hosil beradi. Kuzda uzumlarni chet elga eltib sotuvchilar yaxshigina narx belgilashadi. O‘tgan yili bahorda qirov yalaganidan ko‘ngildagiday hosil ololmadim, ammo saqlanib qolgan to‘rt tonna uzumning har kilosini 11 ming so‘mdan sotdim. Shu bog‘im har yili o‘rtacha 40-45 million so‘m daromad keltiryapti. Yana tokzorlar orasiga ekkan beda hisobidan ikki bosh ho‘kizni so‘qimga boqaman”.

Bu – usta Rajabning e’tirofi. Odamni yer boqishi haqidagi matalning bir dehqon hayoti misolidagi isboti.

“Dastlabki ikki yillik daromadimga o‘g‘limni uylantirdim. Yana ikki yillik hosilga yap-yangi mashina oldim. Keyingi safar o‘g‘limga imorat tiklab berdim. Bundan ortiq nima kerak?”

Tokzorni parvarishlash ko‘p vaqt va mehnat talab qilmaydi. Bahorda qish boshlamasida ko‘milgan toklar ochilib, ishkomlarga tortiladi. Keyin vaqti-vaqti bilan ortiqcha butalari yulib tashlanadi. 30 sotix tokzorga ko‘pi bilan uch qop “Ammafos” mineral o‘g‘iti ishlatiladi. Hosil yig‘ishtirib olingach, toklar ko‘miladi. Toklar voha sharoitida deyarli yarim yil yer ostida kuch to‘plab yotadi.

Qarang, bog‘bon olti oylik mehnati uchun ellik million so‘m daromad topyapti.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishsiz yoshlarga 30 sotixdan yer maydonlari ajratib berilgani ayni muddao bo‘ldi. Yana bu maydonlar 30 yil muddatga berildi. Har yili pensiya jamg‘armasiga ma’lum miqdor pul to‘lasa, shu davri mehnat stajiga qo‘shilishi ham bor.

Voha sharoitida 30 sotix yer maydoni bir oilani tebratishga yetadimi?

Endi shuni hisob-kitob qilamiz:

30 sotix yerga ekilgan kuzgi bug‘doy kamida 70 sentnerdan hosil beradi. Bu o‘rtacha ikki tonna olti yuz kilogramm bug‘doy degani. Olti yuz kilosini ro‘zg‘origa ishlatsa, qolganini bozorga chiqaradi. Bu esa o‘rtacha besh yarim-olti million so‘m degani.

Bug‘doydan bo‘shagan yerga sholi ko‘chatlaydi. Undan kamida shu miqdorda sholi chiqadi. Agar guruchga aylantirsak, bu – bir yarim tonna guruch degani. Bozor narxida 20 million so‘mga teng.

Sholi ko‘chatlash, mineral o‘g‘it, suv va boshqa xarajatlarga besh million ketdi, deganimizda ham, yer egasi bir mavsumda ikki marta olingan hosil hisobidan kamida 20 million so‘m pul daromad topadi. Ro‘zg‘or qozoni yil bo‘yi shular hisobidan qaynashini ayting.

Ikki yil oldin 30 sotix yer olib, bir mavsumda bug‘doy va sholi yetishtirayotgan qo‘shni yigit bu yil yengil mashina oldi. Sababi, u bo‘sh o‘tirgani yo‘q – may oyidan toki oktyabrgacha bir usta boshchiligida besh kishilik guruh tuzib, yettita imorat tiklashdi. O‘tgan yili loydan imorat tiklash narxi har kvadrat metri uchun 110 ming so‘mdan belgilandi. Besh xonali imorat devorlari o‘rtacha yuz kvadrat metr bo‘ladi. Demak, ularning har biri bir mavsumda – besh oy ichida 15 million so‘mdan pul ishlashdi. Imorat egasi kuniga to‘rt marta issiq ovqat berishi, yana izzat-hurmatda bo‘lishlarini ayting.

Ukam avvaliga ikki gektar yerni ijaraga olib, dehqonchilik qildi. O‘tgan yili esa tender savdolarida uch gektar yer maydonini yutib olib, shu maydonlarda bug‘doy va sholi yetishtirishga kirishdi.

“Ota-bobom qilgan dehqonchilikdan foydalisi yo‘q ekan. Ko‘pi bilan olti oy dala boshidaman, qolgan vaqti bekorman. Istasam sayohatga chiqaman, istasam dam olaman. Axir odam dunyoga bir marta keladi”, deydi u.

“Sholi o‘t-suv so‘ramaydi. Istagan vaqtda bozorga chiqarib sotasan. Naqd pulni qo‘lingda yoki bankda saqlashdan afzalroq!”

Bu – qo‘lidagi sarmoyani dehqonchilikka sarflashni ma’qul ko‘radigan kishilarning qat’iy fikri – hayotiy ustqurmasi.

Darvoqe, shunday.

...Yuqorida voha sharoitida qo‘shimcha tomorqa, tenderga berilgan yerlardan bug‘doy-sholi almashlab ekishdan keladigan daromad haqida to‘xtaldik. Agarda qo‘shimcha tomorqa, tender yerga sabzavot ekilsa (sabzavotlar turlaridan vohada bir mavsumda ikki marta hosil olinadi) daromad bundan ham yuqoriroq bo‘ladi. Soz tuproqli maydonlarga ekilgan, yaxshi o‘g‘itlangan kartoshka har sotixidan o‘rtacha uch sentner hosil beradi. Agarda qo‘shimcha tomorqalar hajmi o‘n uch sotix ekanini inobatga olsak... bu – uch oyda to‘rt tonna hosil degani. Kartoshka narxi bozorlarimizda hamisha mo‘tadil.

Suv yo‘llari oxirida bo‘lgan Xiva, Yangiariq, Shovot tumanlari aholisi qo‘shimcha tomorqasiga kartoshka, uni yig‘ishtirib olgach sabzi ekishadi. Sabzi hosili dehqonlar tili bilan aytsak, “tuproqdan og‘ir keladi”.

Sabzavot ekinlari kam suv va yana kam o‘g‘it talab qiladi – qisqasi, kamxarj. Shu sabab sabzavot ekkan xonadonlar bug‘doy-sholi ekkanlardan kam daromad topishmaydi.

...Bularni yozishimdan maqsad ayrimlarning dehqonchilikka bepisand qarab, besh-o‘n dollar ishqida chet ellarga ketib ishlashayotgani. Hatto, ba’zilar qo‘shimcha tomorqalarini qo‘shnilariga ijaraga berib, xorijga ishga ketishadi. Kuniga 10-12 soat, yana dam olishlarsiz chetda topgan puliga yurtga qaytgach bug‘doy, guruch va sabzavot sotib olishadi. O‘sha yoqlarda necha yillab ishlab xarid qilgan yengil mashinalari o‘n-o‘n bir oy garajda chang bosib yotadi. Bir oy haydashi uchun mashinaning akkumulyatorini, nam tortib, ishdan chiqqan shinalarini yangilashi kerak. Bungayam oz pul ketmaydi. Qisqasi, ming azobda topgan pullari havoga sovuriladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ajratilgan 30 sotixlik yer maydonlarini boshqalarga shu taxlit ma’lum muddatga ijaraga (ba’zilari naqd pulga) berayotganlar yana qayta ishga ketish vaqtida...

Bu yog‘ini usta Xudoyshukurov juda kelishtirib aytadi:

“Boyota, endi sizni qora tortib keldik. Chetga ketmoqchi edim, yo‘lkira, yana ish topguncha patent olishga pul kerak. Ishlab topgan birinchi oyligimdan yuboraman”, deb eshigimga kelganlarga “Sen ham dehqonchilik qil. Nima qilasan yot elda azob tortib”, deyman. Mo‘ltirab turganlariga ichim achib, qarz berib yuboraman...”

Bugun usta Xudoyshukurlar haqiqatda “boyota” laqabini olib ulgurgan. Sir bo‘lsa-da, aytib qo‘yay, hatto ayrim tomorqa egalari poytaxtda yangi qurilgan osmono‘par binolardan uy ham olib qo‘yishgan!

Ro‘zimboy HASAN,
jurnalist

Maqom – ruh ozig‘i



Boshlanishi 1-sahifada.

ILDIZ QACHON SUVGA YETADI?

Madaniyat ahli orasida “Haqiqiy san’at hech qachon millat tanlamaydi” degan qanotli ibora mavjud. Bu gap ulug‘vor maqom san’atiga ham tegishli. Agar ohang poydor bo‘lsa, maqomning poydevori juda mustahkam bo‘ladi. Bilasiz, musiqa alifbosida yettitagina nota bor. Necha asrlardan buyon ana shu yetti mo‘jiza vositasida minglab kuylar yaratilyapti. Boshqa xalqlarning ham kuy-qo‘shiqlari o‘ziga xos, lekin ularning taronasi 3–5 notadan u yog‘iga o‘tmaydi. Xudo bizning xalqimizga soz pardasini butun, komil qilib bergan. Ilmiy maqom tariximiz juda olis davrlarga, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, hazrat Alisher Navoiy davrlariga borib taqaladi. Tarixdagi jamiki buyuk ajdodlarimiz u yoki bu darajada musiqashunos bo‘lishgan. Bu xislat Yaratgan tomonidan ato qilinadi. Agar shunday bo‘lmasa, Bobur Mirzo hazratlarining har bir g‘azali kuyga tushmas, qahramon shoirimiz Erkin Vohidovning she’rlari o‘z-o‘zidan qo‘shiqqa aylanmas edi. O‘z paytida Erkin akaning deyarli har bir she’ri qo‘shiq bo‘lgan. Chunki shoirimiz aruz ilmini yaxshi egallagan, o‘zi ham yetuk navoiyshunos olim darajasidagi shaxs edi. Ma’lumki, aruzda bitilgan she’rlar o‘z hijosi, ichki ohangi bilan yarim qo‘shiq sanaladi. O‘rni kelganda, bir gapni aytib qo‘yishim kerak, bugun ayrim ijodkorlarimiz: “Nega san’atkorlar mening she’rimni qo‘shiq qilmaydi?” deb o‘zlariniyam, bizniyam noqulay ahvolga solib qo‘yishadi. Ularning savoliga javob shu: ozgina mumtoz adabiyotni o‘rganish, ulug‘ shoirlarning g‘azallarini yod olish kerak. Ana shunda shoirlarning ijodi teranlashib, o‘zbekcha aytganda, ildizi suvga yetadi.

OLIYMAQOM SAN’AT

1996-yili Tokioga borganimda Okinava shahrida bir yapon musiqashunosi: “Sizlarning maqomlaringizni kompyuterga solib, o‘zagi va jozibasining sababini topolmadim. Maqom degani qanday musiqa o‘zi? Uning asoslari qayerda?” deya hayrat bilan savol bergan edi. “Murakkabligi nimada? Nega topolmadingiz?” deb so‘rasam, “Boshlanish pardadan ikkinchi pardaga o‘tganda daromadi boshlanadi. Daromaddan o‘rta pardaga o‘tadi, o‘rta pardadan kichkina avjga, kichkina avjdan katta avjga, katta avjdan yana kichkina avjga, kichkina daromadga, yana daromadga qaytib keladi. Ya’ni, boshlagan joyiga yana qaytadi. Matematika, hisob-kitob bunga javob berolmayapti”, deya hayratlandi. Ana shunday, milliy maqomimiz – oliymaqom san’atdir, uning ma’no-mohiyati, dardi va ohangini anglab yetish uncha-muncha allomaga nasib qilmaydi.

Maqom insonga axloq-odobdan saboq beradi, kishini madaniyatli, iymonini baquvvat qiladi, ota-onaga, el-yurtga sodiqlikka da’vat etadi. Maqom muhiti kishini ruhan tarbiyalaydi, toblaydi. Maqom ijrochisi hazrat Navoiy, Nodirabegim, Uvaysiy asarlarini yod olib, ularni qo‘shiq qilib kuylash barobarida g‘azallarning ichiga kirib borar ekan, o‘z-o‘zidan kibrdan yiroq bo‘ladi. Zotan, san’at va adabiyot ahliga takabburlik mutlaqo yarashmaydi. Kalondimog‘lik – iste’dodning eng katta kushandasidir.

SANOYI NAFIS NIMA?

Xalqaro Maqom anjumani birinchi marta Shahrisabz shahrida o‘tkazilganida yurtimizga xorijdan qanchadan qancha san’atkorlar, soha mutaxassislari, muxlislar-u mehmonlar oqib keldi. Chunki bu tadbir shunchaki ko‘ngilochar tomosha emas, balki o‘ziga xos ilm anjumani hamdir. Maqom tadqiqotchilari o‘zaro fikr almashishdi, ijrochilar bir-birlaridan ilhom va ta’lim olishdi. Bu yilgi festival uchun nega aynan Zomin tumani tanlandi? Sababi, u yerda maqomning tabiatiga yarashadigan tabiat bor. Maqomning tabiati degani – toza ruh degani. Ba’zi odamlar haqida tabiati sal xiraroq, degan gap yuradi. Bu – san’atdan, adabiyotdan uzoq g‘ofil banda degan ma’noni anglatadi. Agar asl tabiatli, qalbida ozgina dardi bor, muhabbatga oshno kishilarning oldida musiqa ijro etsangiz, ilhomingiz keladi, she’r o‘qiganingizda jo‘shib ketasiz. Chunki u sizni his qilyapti, tushunyapti. “Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga” degan maqol ham bejiz aytilmagan. San’atning o‘zi ruh bilan paydo bo‘ladi.

Musiqa ilmida uchta mashhur ibora mavjud: sanoyi nafis, rizoyi ruh, ilmi musiqa. Sanoyi nafis – dunyodagi nafislardan nafis san’at, o‘ta nozik degani. Ya’ni, kapalakni ushlashingiz mumkin, lekin san’atni ushlolmaysiz. U shunaqa nozik, nafis va ulug‘ ne’matdir. Agar san’atkor kibrga berilmasdan, ustozlar duosini olgan holda ijod qilsa, rizoyi ruhga erishadi. Ilmi musiqa degani shuki, san’atkor avvalo tug‘ma iste’dod sohibi bo‘lishi lozim. U o‘ziga ato etilgan ana shu qobiliyatni rivojlantirish uchun tinimsiz o‘qib-o‘rganishi, mashq qilishi kerak. Maqomni institutda, konservatoriyada, san’atga bog‘liq dargohlarda o‘qish shart. Ana shunda san’atkorning ilmi to‘kis bo‘ladi. Lekin faqat shuning o‘zi bilan san’atkor bo‘laman, deb o‘ylagan odam xato qiladi. San’atkor davralarda o‘zini tutish, muomala va muloqot bobida ham mukammal bo‘lishi lozim. Ahamiyat bersangiz, ilmli odam doim muloyim, vazmin qiyofada andisha bilan gapiradi. Nimagaki, ilm – odob demak.

MAQOM – MILLIY QADRIYAT

Yaqinda Zomin tumanidagi so‘lim maskanda o‘tkazilgan ikkinchi Xalqaro maqom san’ati anjumaniga 80 dan oshiq davlatdan mehmon keldi. Bu gal ham biz anjuman ishtirokchilarining chiqishlarini diqqat bilan kuzatdik, o‘z navbatida mehmonlar bizning milliy ashulalarimizni eshitib, tom ma’noda hayratda qolishdi. O‘zbek maqomining avji balandligini, ma’nosi teranligini, ohangi betakrorligini yana bir bor e’tirof etishdi. Bu galgi anjumanda eronlik maqom ijrochilari Gran-pri sovriniga sazovor bo‘lishdi. Lekin ushbu mamlakatdan tashrif buyurgan xonanda Ali Asg‘or Arabshohiy ham, turk san’atkori Chidem Gurdal ham o‘zbek maqomining o‘ziga xos jilvasi, betakror nolalari va baland darajasini alohida e’tirof etishdi. Mehmonlar festivalning ochilishida “Toshkent irog‘i”, “Qo‘qon ushshog‘i”, “Munojot”ni eshitib lol qolishdi. Mazkur ashulalar yaxlit asarday bir-biriga ulanishini ko‘rib, hayron bo‘lishdi. Biz esa xalqimizning qay darajada yuksak san’at sohibi ekanligidan faxrlandik.

Shu o‘rinda bir gapni ham aytmasam bo‘lmaydi. Men shunday durdona san’atimizning qadriga yetmaydigan, unga bepisand qaraydigan odamlarni ko‘rsam yoqamni ushlayman. Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q, deganlari shu-da. Maqom – biz uchun milliy qadriyat. Agar uni anglamasak, qadrlamasak, milliy qiyofamiz to‘kis bo‘lmaydi. Ana shuning uchun ham yurtimizda maqom anjumanlari tashkil etilyapti. O‘z navbatida, bu festivallar xalqimizning tarixiy san’atimiz mazmuni va ahamiyatini teranroq anglashiga ham ko‘maklashyapti.

OLTIN SILSILA

Rasul qori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev, Tavakkal Qodirov, Orifxon Hotamov, Ma’murjon Uzoqov, Zaynab Polvonova, Fotima Boruxova, Barno Isoqova, Kommuna Ismoilova, Habiba Oxunova, Berta Davidova... Maqom san’ati oltin silsilasining nomdor namoyandasi bo‘lgan bunday ustozlarning o‘ziga xosligi nimada edi? Shubhasiz, maqomda, maqom tarbiyasini egallaganida. Ular maqomning yuksak pardalarida ijod qilib, shu oliy maktabning o‘quvchisi sifatida keyinchalik o‘zlari ham yangi qo‘shiq yaratganlar. Doni Zokirov, G‘anijon Toshmatov ham maqomni yaxshi bilgani uchun yaratgan qo‘shiqlarining umri uzoq. Hozir aksariyat xonandalar kuylayotgan qo‘shiqlarning umri uch oyga ham bormayapti. Sababi, ular maqomni bilmaydi. Qo‘shig‘ining asosida maqom nolasi, maqom pardasi yo‘q. Botir Zokirov ijodiy yutuqlarining eng katta siri shuki, u kishining otasi Karim Zokirov maqom ustasi bo‘lgan. Qolaversa, Botir Zokirovning ko‘plab mashhur qo‘shiqlariga kuy bastalagan Ikrom Akbarov chinakam maqomdon edi. Mutal Burhonov davlatimiz madhiyasining musiqasini qoyillatib bastalaganining sababini bilasizmi? Chunki u kishi “Shashmaqom”ni yoddan bilgan. Atoqli kompozitor Manas Leviyev tomonidan “Mahallada duv-duv gap” badiiy filmiga yozilgan o‘lmas musiqa zamirida ham maqom yotibdi.

Ko‘ryapsizmi, maqomdan xabardor san’atkor yaratgan musiqalar zamonlar osha yashayveradi. Afsuski, hozir ko‘pchilik yoshlar maqomni yaxshi bilmaydi, uni deyarli eshitmaydi. Xo‘p, maqom aytma, lekin uni o‘rgan, tushun, shuning o‘zi yetarli. Boshqa narsa kerak emas...

MAQOM VA ZAMONAVIY CHOLG‘ULAR

Xo‘sh, Xalqaro maqom anjumani o‘zimizning Maqom ansamblimizga nima berdi? Avvalo, anjuman tanlovida ansamblimiz 1-o‘ringa loyiq deb topildi. Bu biz uchun bir pog‘ona yuksalish bo‘ldi. “Endi bu yog‘iga Gran-priga harakat qilish kerak”, dedilar davlatimiz rahbari. Ha, endi o‘zbek maqomini tom ma’noda dunyoga olib chiqamiz. Hatto, Maqom ansambliga zamonaviy sozlarni qo‘shishga ruxsat berildi. Bu qanday bo‘ladi? Sintezator – yevropaniki, lekin cholg‘u egasi maqomchi. Qaysi cholg‘u bo‘lsa ham maqom ijrosi jarayonida uni o‘zimizga bo‘ysundirib olamiz. Nola, qochirimlar berib, maqom yo‘liga olib kirish cholg‘uchining o‘z qo‘lida.

Agar xudo ko‘ngliga solmasa, soz ustasi sintezator, gitara kabi cholg‘ularni yarata olmaydi-ku. Ibn Sinoning ham ko‘ngliga solmasa, insonning ko‘zdan pinhon bo‘lgan ichki a’zolaridagi kasalliklarni qanday topardi? Turg‘un Alimatov tanburchi edi, lekin u kishi zamonaviy sato cholg‘usini dunyoga keltirdi-ku. Bizda yaqin vaqtlargacha hammani yig‘latishga qodir bo‘lgan bunday turdagi cholg‘u yo‘q edi. Turkiyalik sozanda rus sozida mug‘om chalyapti. Shinavandalar unga e’tiroz bildirmayapti...

Muhimi, festival ansamblimizga juda katta ijodiy turtki berdi. Ansamblimiz bor bo‘yi bilan dunyoga chiqishini xohlayman. Chunki to‘rtta cholg‘u, ikki nafar hofiz bilan o‘zbek maqomining butun salobati, ulug‘vorligini ko‘rsatib bo‘lmaydi. Maqom – lirik qo‘shiq emas. Bax, Betxoven asarlari butun dunyoda bebaho musiqiy durdonalar sifatida e’tirof etiladi. Nega biz maqomni ulug‘lamasligimiz kerak? Bir narsa doim ko‘nglimni xira qiladi. Shopen, Chaykovskiy asarlarini “qirqish” mumkin emas, lekin ayrim kishilar bayram konsertlarida maqomni bemalol “qaychilashadi”. Bunday holatlar maqom san’atining ommalashuviga salbiy ta’sir qiladi. Shukrki, bugun maqomimizga munosabat tubdan o‘zgardi. Zomin anjumanida ko‘pgina rahbarlar va oddiy tomoshabinlar maqom qo‘shiqlarimizni xonandalar bilan jo‘r bo‘lib kuylaganidan nihoyatda xursand bo‘ldim. Ana shuning o‘zi ham ibrat, ham tarbiya! Mumtoz ashulalarni, maqomlarni tinglashga odamlarni bolaligidan o‘rgatishimiz kerak.

O‘zim ham imkonim bo‘ldi deguncha ashula eshitaman. Maqom anjumanida barcha qatnashchilarning chiqishlarini tingladim. Har birining o‘ziga yarasha uslubi, jozibasi bor. Ayni paytda ularning ashulasini tinglash bilan birga, o‘zim uchun xulosalar ham chiqardim. Boshqa millatlar kuy-qo‘shiqlarini eshitgan paytimda ko‘nglimdan kechgan hayajonli tuyg‘ularni hozir ham his qilyapman. Albatta, bular haqida bafurja o‘ylab olish uchun vaqt kerak.

Agar o‘zimning ta’bimga mos qo‘shiqchilar haqida gapirsam, amerikalik mashhur xonanda Uitni Xyustonning qo‘shiqlarini yaxshi ko‘raman. Lekin nazarimda, ijrochilik mahorati borasida hech kim Halima Nosirova, Habiba Oxunova, Kommuna Ismoilova, Saodat Qobulova, Olmaxon Hayitova bilan tenglasholmaydi.


E’TIBOR VA MAS’ULIYAT

2017-yildan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida milliy maqom san’atimiz chinakam ma’noda dunyoga yuz tutdi. Yurtimiz bo‘ylab maxsus maqom maktablari ochildi, Maqom san’ati instituti faoliyat ko‘rsatyapti. Mana, nufuzli xalqaro festivallar tashkil etilyapti. Bu esa biz kabi san’atkorlarni quvontirish bilan birga, zimmamizdagi mas’uliyatni o‘n chandon oshiradi. Fursatdan foydalanib, milliy san’atimizga, jumladan, Milliy maqom ansambli faoliyatiga katta e’tibor berib, bizni yangi ijodiy yutuqlar sari rag‘batlantirayotgan Prezidentimizga chin dildan minnatdorlik bildirmoqchiman. Biz bebaho va betakror maqom san’atimizni rivojlantirish yo‘lida bundan buyon ham bor kuch va salohiyatimizni ishga solib, tinimsiz ijod qilamiz.

Gulchehra UMAROVA
yozib oldi.

YODNOMA

Bir yigit qirq yilda bino bo‘ladi, deyishadi. Chin olim kamoloti uchun ham shuncha vaqt zarur. Olimning martabasini uning yozgan kitoblari, xolis dunyoqarashi, haqqoniy talqinlari, hamkasblarining e’tirofi belgilab beradi. Nazarimda, ozarbayjonlik atoqli adabiyotshunos va tarjimon Ramiz Asqar turkiyshunos olimlar orasida ana shunday yuksak martaba qozona olgan zahmatkash tadqiqotchi edi. Uning ozarbayjon va boshqa qardosh xalqlar adabiyoti sohasidagi ilmiy faoliyatining qamrovi nihoyatda kengligidan xabarim bor.



Adabiy do‘stligimiz ramzi edi

Ramiz Asqar barcha turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalari xususida muqoyasali-e’tiborli so‘z ayta oladigan noyob adabiyotshunoslar sirasiga kirardi.

Bugun rasm zamoni, rasm urfda. Ijod ahlining so‘zi qadrli bo‘lgan mumtoz zamonlarda ular dastavval bir-birini asarlari orqali tanishar edi. Shu xayolda men Ramiz Asqarni dastlab yozgan asarlari, umumturkiy adabiyot tadqiqotchisi, mumtoz asarlarimizning mohir tarjimoni, o‘zbek adabiyotining Ozarbayjondagi do‘sti sifatida tanidim. Keyin Ashxobod shahridagi ulkan bir xalqaro anjumanda o‘zini uchratdim. Dildan muloqot qilib, birga rasmga ham tushdik...

Ramiz Asqar O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan navoiyxonlik, boburxonlik xalqaro anjumanlarining doimiy ishtirokchisi edi. Tarjimon-olim uch-to‘rt yil oldingi bir anjumanda ozarbayjon tilida to‘rt jildda nashr etilgan “Devoni lug‘otit turk”ni taqdim etdi. Tanaffus paytida yurtimizdagi turli oliy ta’lim muassasalaridan malaka oshirish uchun kelgan filolog-adabiyotshunos muallimlarga Ramiz Asqarni tanishtirdim. Suhbatimiz qizg‘in kechdi. Tinglovchilar havas qilishdi. O‘sha kezlarda u kishi “Qutadg‘u bilig”ni ozar tiliga tarjima qilayotgan ekan. Ilm qudrati, adabiy do‘stlik qadri haqida, Bobur xususida, ayriliq, diydor va sog‘inch to‘g‘risida hayajon bilan so‘zladi. O‘n-o‘n besh daqiqalik ayni gurungimiz auditoriyadagi mashg‘ulotlardan ko‘ra samaraliroq kechgan edi.

Har bir asar – ijodkor umr kitobining bir sahifasidir. Ramiz Asqar ijodida bunday zarrin sahifalar ko‘p. U o‘z adabiy-ilmiy faoliyati davomida juda sermahsul ishladi. O‘ndan ortiq kitob, yuzlab maqola yozdi. Turk dunyosi adiblarining qirqdan ortiq asarlarini ozarbayjon tiliga o‘girdi. Tarjimalar orasida o‘zbek adabiyoti alohida o‘rin tutadi. Dastlab u “XX asr o‘zbek she’riyati antologiyasi”ni tuzib, ozarbayjon o‘quvchilariga taqdim etgan edi. Shundan keyin Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib asarlari, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa” kitoblari, “Boburnoma”, Bobur va Husayniy “Devon”larini, zamonaviy adabiyotimizning bir qancha sara namunalarini qardosh ozar tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari, turk, turkman, qozoq, tatar, qirg‘iz adabiyoti bo‘yicha qator tadqiqotlar olib bordi. Shu e’tibordan bu nom nafaqat o‘zbek-ozarbayjon, balki umumturkiy adabiy aloqalari tarixida ham alohida o‘ringa ega.

Ramiz Asqar bir suhbatida “Boburnoma”ni shoh asar o‘laroq ta’riflar ekan, shunday fikrni aytadi: “Dunyoning ko‘pgina, hatto, g‘arb tillariga tarjima qilingan bu asarni ozarbayjon kitobxoni ham o‘z tilida o‘qib, bahramand bo‘lishi zamon talabi edi”. Darhaqiqat, “Boburnoma”ni ozarbayjon o‘quvchisi Ramiz Asqar tarjimasida o‘qish baxtiga erishdi.

Olim o‘zbek adabiyotini Ozarbayjon va umuman, turkiy xalqlar orasida targ‘ib qilish borasidagi ulkan xizmatlari uchun mamlakatimizning Bobur nomidagi xalqaro mukofoti bilan taqdirlangan, Navoiy davlat pedagogika instituti faxriy professori etib saylangan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a’zoligiga qabul qilingan edi. U kishi Navoiy shahrining faxriy fuqarosi sifatida har yili u yerda o‘tkaziladigan xalqaro navoiyxonlik anjumanlarida muntazam ishtirok etardi.

Ayniqsa, bundan bir necha yil burun muhtaram Prezidentimiz Farmoniga binoan Ramiz og‘a mamlakatimizning “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlanganida barchamiz chin dildan quvongan edik. Zotan, uzoq yillardan buyon o‘zga ellarda milliy adabiyotimizni beg‘araz, beta’ma targ‘ib etib kelayotgan kamtarin va kamsuqum insonning bunday yuksak mukofotga loyiq ko‘rilishi madaniy hayotimizda o‘ziga xos voqea bo‘lgan edi.

Ramiz Asqarning ozarbayjon madaniyati va adabiyotini rivojlantirish yo‘lidagi fidokorona faoliyati o‘z yurtida ham munosib bahosini olgan, xususan, u kishi tavalludining 70 yilligi munosabati bilan Ozarbayjon Respublikasining “Vatan oldidagi xizmatlari uchun” ordeniga sazovor bo‘lgan edi. O‘rni kelganda taniqli turkolog olim qardosh respublikalar hamda bir qator xalqaro tashkilotlarning nufuzli mukofotlariga loyiq ko‘rilganini ham e’tirof etish lozim.

Odam odamga g‘animat ekan. Bir yil oldin yozda Bokuda “O‘zbek-ozarbayjon adabiyoti va san’ati kunlari”da Ramiz og‘a bilan yana uchrashdik. Aniq esimda, Ozarbayjon Milliy kutubxonasida bo‘lib o‘tgan anjumanda so‘zlagan ma’ruzasida u kishi gapini “vazir” va “nozir” so‘zlari muhokamasidan boshlagan edi. Ramiz Asqar dillarni, ko‘ngillarni o‘zaro bog‘laydigan, turkiylarning olis tarixdagi adabiy manbalarini zamonamizga yaqinlashtiradigan so‘z zahmatkashi – mahoratli tarjimon, bilimdon olim edi. Uning e’tiroficha, “ilm dunyosi – bepoyon dengiz”. Ramiz Asqar ana shu dengizning tolmas g‘avvosi edi. Dur-javharlar izladi, topdi, terdi...

Odatda adabiy anjumanlarda o‘tgan ulug‘larning buyuk ishlari faxr bilan tilga olinadi, taqqoslanadi. Alisher Navoiy va uning xamsachilikdagi ijodi xususida gap borganida, albatta, Nizomiy Ganjaviy esga keladi. Vaqtida Alisher Navoiy hazratlari “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning beqiyos imkoniyatini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, shu yo‘lda ozarbayjonlik bir olim “Muqoyasat ul-lug‘atayn” kitobini yozgan ekan. Bu asar o‘zbek tiliga o‘girilishi lozim. Ramiz Asqar qatnashgan anjumanlarda shu kabi yangi va muhim ma’lumot hamda takliflar aytilar edi. Jadidlar zamonidan Abdurauf Fitrat asarlarini tarjima qilish taraddudida yurgan edi...

Bugun Ramiz Asqarni yodlab, u haqdagi fikrlarni o‘tgan zamon kesimida bayon qilmoqdamiz. Bundan bir oycha burun u kishi bu dunyoni tark etdi. Bu noxush xabar yurtimizda ham ko‘plab adabiyot muxlislarini, Ramiz Asqarni yaqindan taniydigan olim-u ijodkorlarni chuqur qayg‘uga soldi. Zotan, o‘zbek adabiyotining ozar eli, va umuman, turkiy dunyodagi tolmas targ‘ibotchisi bo‘lgan bu inson biz uchun nihoyatda qadrdon siymoga aylanib qolgan edi.

Ramiz Asqar... Mudom chehrasida nimtabassum akslanib, suhbatdoshiga muloyim, savolchan va o‘tkir boqadigan bu insonni aslo unutib bo‘lmaydi. Hali katta-katta ilmiy-adabiy yig‘inlarda, do‘st-u qadrdonlar davrasida uning o‘rni bilinadi, amalga oshirgan ezgu ishlari va yuksak insoniy fazilatlari ko‘p bor tilga olinadi. Taskin shuki, u kishining ruhiga rost yozganlaridan to qiyomatgacha savob yetib boradi. Shoir aytmoqchi, “Umrlar bo‘ladiki, o‘lgan odam tirikdir”.

Biz sizdan mingdan ming rozimiz, siz ham bizdan rozi bo‘ling, Ramiz og‘a!

Bahodir NURMUHAMMAD

Boshlanishi 1-sahifada.

DOVRUG‘I OLATOG‘DAN



AQShning Kanzas universitetida jurnalistika sohasi bo‘yicha malaka oshirgan.

2002-yildan Qirg‘iziston ta’lim va madaniyat vazirining o‘rinbosari, Madaniyat va san’atni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi prezidenti, Madaniyatni rivojlantirish davlat komissiyasi raisi, Madaniyat vaziri, Madaniyatni rivojlantirish davlat agentligi boshlig‘i, Prezident maslahatchisi, Bosh vazir maslahatchisi, Madaniyat, axborot va turizm vaziri kabi mas’ul lavozimlarda mehnat qilgan.

2021-2022-yillarda Turkiy davlatlar kengashi Bosh kotibining o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

U 2022-yildan buyon Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY rahbari bo‘lib, bepoyon turkiy makonda madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish harakatiga yetakchilik qilib kelmoqda.

O‘z vaqtida ozarbayjonlik mashhur xonanda, san’atshunoslik doktori, professor Po‘lat Bulbulo‘g‘li (1993–2008) hamda Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Dyusen Kaseinov (2008–2022) bu nufuzli tashkilotga rahbarlik qilib, turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo‘lida salmoqli ishlarni amalga oshirganlar.

Bugungi kunda TURKSOYning faoliyati yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarilib, tashkilot tomonidan bepoyon mintaqalarda yashovchi turkiy millatlarning mushtarak qadriyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish, umumiy boyligimiz bo‘lmish noyob va bebaho tarixiy merosimizni, zamonaviy madaniyatimizni o‘rganish va dunyoga keng targ‘ib etish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasidagi g‘oyat muhim va yirik loyihalar amalga oshirilayotganiga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz.

Xususan, keyingi yillarda a’zo davlatlar o‘rtasida madaniyat va san’at kunlari, yoshlar va teatr festivallari, ilmiy anjumanlar, xalqaro konferensiyalar, badiiy ko‘rgazmalar uyushqoqlik bilan o‘tkazilmoqda. Qadimiy va go‘zal shaharlarimiz Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti deb e’lon qilinmoqda.

Ulug‘ shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etildi. Ayni vaqtda, tashkilot rahnamoligida buyuk turkiy ajdodlarimiz nomlari bilan ataladigan tadqiqot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

TURKSOY Yozarlar birligi va “Mumtoz she’riyat” xalqaro adabiy festivali tashkil qilindi. Turkiy dunyo kinochilar va rassomlar uyushmalari tuzildi.

Yurtimizda nashr etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli 100 jildlik kitoblar turkumining taqdimotlari xalqaro doiralarda o‘tkazildi. TURKSOY tashkilotining 30 yilligi a’zo davlatlar poytaxtlari hamda YUNESKO qarorgohi Parij shahrida yuksak saviyada nishonlandi...

Albatta, bunday ishlarning barchasini to‘la sanab o‘tish imkonsiz. Eng muhimi, ularni amalga oshirishda TURKSOY rahbari sifatida Sulton Rayevning ulkan xizmatlari, fidoyilik fazilatlari mujassam va uning bu yo‘nalishdagi qizg‘in faoliyati, turkiy dunyo birligi va hamjihatligini har tomonlama kuchaytirishga qaratilgan yangi-yangi g‘oya va tashabbuslari hammamiz uchun ibratlidir.

Biz Sulton Rayevni, yuqorida aytganimizdek, O‘zbekistonning, o‘zbek adabiyotining chinakam do‘sti deb bilamiz.

Uning bolaligi O‘sh viloyatida, o‘zbeklar orasida o‘tgan. Shuning uchun xalqimiz tabiatini, urf-odatlarini yaxshi biladi.

U qirg‘iz diyoridan yetishib chiqqan Tursunboy Adashboyev, Shavkat Rahmon, Ahmadjon Meliboyev, Zuhriddin Isomiddinov, Erkin Boynazarov, Abdug‘ani Abdug‘afurov, Usmon Temur kabi o‘zbek adiblari, shayx Alovuddin Mansur, Anvar qori Tursunov kabi taniqli ulamolar bilan yaqin do‘st bo‘lgan. O‘rni kelganda ta’kidlash joizki, Sulton aka muqaddas Qur’oni Karimni qirg‘iz tiliga tarjima qilishdek mas’uliyatli va savobli vazifani ado etgan. Bu ezgu ishda Alovuddin Mansur hazratlari nashr muharriri sifatida o‘ziga katta yordam va maslahatlar berganini u hali-hanuz hurmat va minnatdorlik bilan eslaydi.

TURKSOYning O‘zbekistonda o‘tadigan barcha tadbirlarida Sulton Rayev o‘zbek tilida nutq so‘zlaydi. Bu ham do‘stimizning xalqimizga bo‘lgan yuksak mehri va ehtiromidan dalolat beradi.

Ayni paytda, o‘zbek adabiyoti va san’ati namunalarini turkiy tillarda nashr etish, O‘zbekiston hayotiga bag‘ishlangan badiiy va ilmiy kitoblar, albomlar, filmlar yaratish ishlariga alohida e’tibor qaratadi.

Sulton Rayevning dovrug‘i Olatog‘ning baland cho‘qqilaridan allaqachon oshib ketgan. U kishining Qirg‘iziston xalq yozuvchisi, Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi unvonlari, “Danaker” ordeni, To‘qtag‘ul nomidagi Davlat mukofoti hamda turli davlatlar va xalqaro tashkilotlarning “Oltin atirgul” (Gruziya), “Chingizxon” (Mo‘g‘uliston), “Otaturk” (Turkiya), “Deniyel” (Koreya Respublikasi), “Lomonosov” (Rossiya), “Do‘stlik” (Qozog‘iston) orden va medallari hamda “Hamdo‘stlik yulduzlari” (MDH) nomli mukofotlari bilan taqdirlangani ham fikrimizning isbotidir.

3

Ba’zi qalamkashlar bo‘ladiki, ular jamiyatdan uzilgan, “tarki dunyo” qilgan holda asosan o‘z ijodi bilan shug‘ullanadi. Agar iloji, imkoni bo‘lsa, adabiyot rivoji uchun bu ham yaxshidir balki, lekin yana shunday adiblar toifasi ham borki, ular ijtimoiy hayotdan chetda turmaydi – turolmaydi, mamlakat tinchligi va ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida o‘zini ayamasdan, doimo oldingi saflarda turib mehnat qiladi. Ham mas’uliyatli vazifalarda ishlab, ham badiiy ijod bilan mashg‘ul bo‘lish – bu, albatta, oson ish emas. Bu birinchi navbatda o‘z oromi, huzur-halovatidan, kerak bo‘lsa, shaxsiy xudbinlikdan butunlay voz kechish demakdir. Hazrat Mir Alisher Navoiy bobomiz bu borada ham ideal namuna yaratganliklarini eslab o‘tish kifoya.

Bu haqda so‘z borganda, Ernest Xemingueyning: “Yozuvchi insoniyatning go‘zal va dorilomon kelajagi uchun nainki o‘z badiiy asarlari, balki ijtimoiy mas’ul shaxs sifatidagi ezgu ishlari va sa’y-harakatlari, qat’iy fuqarolik pozitsiyasi bilan ham faol ishtirok etishi kerak”, degan fikrlari yodga tushadi.

Hammamizga ma’lumki, olamshumul adib, atoqli jamoat arbobi Chingiz Aytmatov turli yillarda “Правда” gazetasida, “Иностранная литература” jurnalida ishlagan. Qirg‘iziston Yozuvchilar uyushmasi va “Qirg‘izfilm” studiyasi faoliyatini rivojlantirishda beqiyos xizmatlar qilgan. Respublika va sobiq ittifoq parlamentlarining deputati sifatida jo‘shqin faoliyat olib borgan. Dastlab SSSRning, keyinchalik Qirg‘izistonning Lyuksemburg, Belgiyadagi elchisi bo‘lib ishlagan. 1995–2008-yillarda bosh qarorgohi Toshkentda joylashgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi prezidenti vazifasini bajargan. “Issiqko‘l forumi” xalqaro tinchlik harakatini tashkil etgan.

Sulton Rayevning tarjimayi holiga nazar tashlagan kishi u buyuk ustozi yo‘lini tutib, ayni paytda ijodiy va ijtimoiy faoliyatni uyg‘un holda olib borayotgani, eng muhimi, har ikki jabhada ham katta muvaffaqiyat qozonib kelayotganiga amin bo‘ladi.

Shu ma’noda, Chingiz Aytmatov shogirdining qalamiga mansub “Xonishaning ko‘zyoshlari” kitobiga yozgan so‘zboshisida qirg‘iz adabiyotiga yangi, yorqin bir iste’dod dadil ovoz bilan kirib kelayotganini ta’kidlab, o‘ziga xos bashorat qilgan edi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Sulton Rayev ustozlar izidan borib, bugungi kunda jahon miqyosida ko‘zga ko‘ringan adib, taniqli diplomat bo‘lib maydonga chiqdi. Uning g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk o‘nlab kitoblari dunyoning turli mamlakatlarida nashr qilinayotgani, ingliz, fransuz, rus, venger, xitoy, ukrain, turk, qozoq, ozarbayjon, o‘zbek, tatar va boshqa tillarga o‘girilib, xalqaro madaniy doiralarda keng e’tirof etilayotganini barchamiz turkiy adabiyotimizning katta yutug‘i deb qabul qilamiz.

4

Albatta, endi shuncha ta’rif-tavsiflardan so‘ng Sulton Rayev asarlarini muxtasar tarzda bo‘lsa-da tahlil qilish, uning roman, pyesa va hikoyalari mutolaasidan olgan o‘chmas taassurotlarimizni hurmatli kitobxonlarimiz bilan o‘rtoqlashishimiz tabiiydir.

Fikrimizni avvalo, “Manas otaning avlodi” hikoyasidan boshlasak.

“Risolatning oy-kuni yaqinlashgan sari, tanasi og‘irlashib borardi. Bir-ikki kun ichida to‘lg‘oq tutib qolishi hech gap emas. Ammo so‘nggi imtihon kuni yaqinlashib kelmoqda. Bu to‘g‘rida o‘ylaganida yegan-ichgani ichiga tushmaydi. Tug‘ishdan ko‘ra ham shu qurg‘ur imtihondan o‘tib olsa bas, joni orom topardi...”

Hikoya shunday boshlanadi va mana shu ilk jumlalardanoq o‘quvchining butun diqqat-e’tiborini o‘ziga ohanrabodek tortib oladi. “Nima ekan u imtihon?” – degan savol kitobxonning tinchini o‘g‘irlaydi.

Asar qahramoni – erta-indin ko‘zi yoriydigan talaba-kelin oliygohdagi imtihondan o‘tish uchun nega bunchalik kuyunmoqda? Axir, farzandni yorug‘ dunyoga keltirish – eng og‘ir imtihon, narigi dunyoning eshigiga borib-kelish bilan barobar emasmi? Uning uchun esa... “Tug‘ish nima – to‘lg‘oq boshlansa bo‘ldi, u yog‘i hech narsa emas. Shuning uchun ham, ikkiqatligiga qaramay, tinimsiz yugurib-yeladi, erta-kech so‘nggi imtihonni o‘ylaydi”.

Bu “qurg‘ur imtihon” qanday baloyi azim ekanki, qahramonimizning ko‘ziga hatto tug‘ishdan ham mashaqqatli ish bo‘lib ko‘rinmoqda? Buning, albatta, sababi bor. Chunki, “topshirib olsa bo‘ldi, stipendiyaga ilinadi. Yiqilishdan Xudoning o‘zi asrasin. Turmush o‘rtog‘i bilan amal-taqal qilib, tirikchilik o‘tkazayotganda shu stipendiya ham jonlariga oro kiradi”.

“Nimjon tanasini anatomiya bo‘yicha ko‘rgazmali qurol qilib qo‘ysa bo‘ladigan” eri ham uning tashvishiga sherik. “Pechkaga o‘t yoqqan ham, kulini tozalagan ham o‘zi. O‘tin bo‘lib kiradi, kul bo‘lib chiqadi”. Zora, xotinimning esida qolsa, degan ilinj bilan “peshonasidan oqayotgan ter marjonlarini artib-artib”, ertaga bo‘ladigan imtihon – “Manas” dostonini ovoz chiqarib qiroat bilan o‘qishda davom etadi:

“Ozod-emin yurt kutgan
Elni hali ko‘rmabmiz.
El uchun jonin bergan
Erni hali ko‘rmabmiz.
Olatog‘dan oshibmiz-u,
Tog‘ni hali ko‘rmabmiz...”

Aksiga olgani shu-da, kechasi bilan er kitob o‘qigan, xotin tinglagan – ertalab “kun arqon bo‘yi ko‘tarilsa ham, qushning uyasiday ijara xonada (uyam shaharning chekkasida) ikki yosh dong qotib uxlardi. Soatning jiringlaganini eshitishmabdi ham. Omad ketsa, hammasi chappa bo‘ladi, deganlariday, o‘zi shu imtihonga Risolatning kechikib borishi yetmay turgan edi. Imtihon soat sakkizda boshlanadi. Sakkiz bo‘lgani qachon edi-yu. Jiringlayverib charchagan soat millari esa salkam o‘nni ko‘rsatib turibdi”.

Qahramonimiz shoshilib ko‘chaga chiqadi, homilador emasmi, mashaqqat bilan arang qadam bosadi, ishqilib, avtobusga ulgursin. Shu holda, “professor shoshilmaydi, sen ham shoshilma, imtihon o‘n birda ham tugamaydi. Omuraliyev har bir talabani kamida bir soat so‘roqqa tutadi. Qotgan nondan qil sug‘urganday, bechora studentlarni ezib-ezib rohat qiladi”, deb ham o‘ziga dalda beradi, ham vahimasini oshiradi.

Risolat imtihonning oxirgi daqiqalariga yetib keladi. Qattiqqo‘l professorning kinoyali gap-so‘zlaridan keyin imtihon biletini qo‘liga oladi. Afsus, “Manas” – bahodirlik eposi” degan savolga ko‘zi tushiboq yuragi qinidan chiqib ketguday bo‘ladi. “Tamom, rasvo bo‘ldi. Topshirolmaydi. Kechasi eri o‘qib berganlaridan bir satr ham yodida yo‘q. Eslamoqchi bo‘ladi, ammo foydasiz”.

“Qizim, aniqroq gapir, o‘zi eposni o‘qiganmisan?” – deb so‘raydi professor. Risolat “shunday ulug‘ eposni o‘qimagan kishilar qatoriga qo‘shilishni xohlamay”, yolg‘on gapirishga majbur bo‘ladi: “O‘qigan edim, ag‘ay...”

“Professor Risolatning yolg‘onini uning ko‘zlaridan sezib turardi. O‘qiganida sharillatib tashlardi javobni. Bunday yolg‘onlarga u ko‘p bor duch kelgan”.

Professor o‘rnidan turadi, talabaning javobini tinglash bilan birga xayolga beriladi: “Manasni ham shu oldimda turgan qirg‘iz qizlaridan biri tug‘gan bo‘lishi kerak. U xuddi shunday oddiy ayol bo‘lishi mumkin. Onalar ko‘pincha kimni dunyoga keltirganlarini bilishmaydi”.

Lekin professor “Manas”ni o‘qimaganlarning birortasiga ham rahm qilmagan, kechirmagan”. Ichidagi noroziligini tiliga chiqaradi, “o‘qimabsan-a, qizim, o‘qimabsan”, deydi afsus bilan.

Risolatning tili tutiladi, ikki yuzi xijolatdan qizarib ketadi: “O‘qigandim, ag‘ay, negadir yodimga kelmayapti”.

“Risolat o‘zini oqlamoqchi bo‘lib yana bir nimalar demoqchi bo‘ldi, ammo so‘zlari qovushmadi. Ichida, chap tomonida og‘riq turdi. Shu yolg‘on isitmaga aylanganday bo‘ldi. Qornidagi homila onasining yolg‘onini sezdimi, tipirchilay boshladi. Bezovtaligini professorga bildirmaslikka harakat qildi, ammo o‘zgarib ketgan yuzi...

– “Manas”ni o‘qimaslik uyat, qizim. – Professor jahli chiqqan holda o‘rnidan turdi. – Elimizning shunday buyuk merosini bilmaslik – uyat. Manas – bizning ota tomirimiz, bosib o‘tgan yo‘limiz, qonimiz, jonimiz. Qirg‘iz eli shu qondan tarqagan, bilsanglar. Sizlar-chi? Epos haqida ikki og‘izlik bilimingiz ham yo‘q. Uyat, uyat. – Professorning qoshlari chimirilib, yuzi jiddiylashdi. – Bugun Manasni bilmaganlar, ertaga uni butunlay unutadi, keyin esa kimligingizni, qayerdan kelganingizni ham bilmay qolasizlar. Bu javobing bo‘lmaydi, o‘qi, qizim, o‘qi. Mana, zachyotkangni ol, o‘qib kelib, qaytadan topshirasan...”

Mana shu joyda qahramonning asl qiyofasini, ichki olamini namoyon etadigan muhim nuqta bayoni keladi.

“Professor stol ustida turgan zachyotkani Risolatga uzatdi. Baho qo‘yilmagan. Uni qo‘liga olar ekan, Risolat og‘irlashayotganini sezdi.

Professorga, oyiga qirq so‘mdan to‘lab, bir kampirning uyida ijarada turishini, oila tashvishlari bilan bo‘lib, o‘qishga vaqt topa olmayotgani, bugun baho olmasa, stipendiyadan qolib ketishini – hamma-hammasini aytib bermoqchi bo‘ldi. Ammo bularni nima uchun professorga aytishi kerak? Nima qilib bo‘lsa-da, baho olish uchunmi? U: “Ha, bilar ekan, “Manas”ni o‘qigan ekan”, deb baho qo‘yishi kerakmi?

Xo‘p, baho oldi, ham deylik. Stipendiyaga ilashadi. Keyin-chi? Keyin o‘qiydimi? Imtihondan o‘tib oldim, endi zarur emas, deb o‘ylamaydimi? O‘qimaydi. Umrining oxirigacha ham o‘qimasa kerak.

Xayolini professorning ovozi bo‘ldi:

– Qizim, kel, zachyotkangni uzat. Oy-kuning yaqin ekan, mayli, baho qo‘yib bera qolay. Omon-eson qutulib olsang, keyin o‘qirsan...

– Yo‘q, ag‘ay, o‘qib kelib topshiraman, – dedi Risolat auditoriyadan chiqar ekan.

Professor uni to‘g‘ri tushunganday bo‘lib, turgan joyida turib qoldi. Biroz avval o‘zining xayolidan o‘tgan so‘zlar yodiga tushdi: “Manas”ni ham shunday qirg‘iz qizlaridan biri tug‘gan bo‘lishi kerak. U xuddi shunday oddiy ayol bo‘lishi ham mumkin”.

Xo‘sh, keyin-chi, keyin nima bo‘ladi? Hayot voqeligi va hayotiy prinsip to‘qnashgan ushbu hikoya qanday yakun topadi? Tug‘ilajak homilaning holi ne kechdi? Bugungi zamondoshlarimiz o‘z xalqining ma’naviy ildizlari bilan qanday bog‘lanadi?

Bu savollarga, yaxshisi, “Manas otaning avlodi” hikoyasini o‘qib, muhtaram kitobxonlarning o‘zlari javob topganlari ma’qul.

“Fikrning aniqligi ifodaning aniqligiga zamin yaratadi”, deydi fransuz adibi Gyustav Flober. Men Sulton Rayev asarlarini har gal maroq bilan mutolaa qilar ekanman, bu barkamol ijod namunalaridagi ifodaning tiniq va ravshanligiga amin bo‘laman.

Aslida, yozuvchining mahorati ham shunda – o‘quvchi e’tiborini asarning ilk jumlasidan tortib so‘nggi nuqtasigacha mana shunday fikriy-hissiy taranglikda ushlab tura olishda emasmi?

Adibning yetuk hikoyalaridan biri – “Haftaning beshinchi kuni” shunday boshlanadi:

“Tun yarmidan og‘di. Bugun juma. Qalin tuman tushgan, atrof uncha ko‘zga tashlanmaydi. Qor biyday dalani sutday oqartirgan.

Notanish kishi ovulga yaqinlashayotganini sezgan itlar vovullaydi. U sovuqdan ko‘karib ketgan mushtlarini og‘ziga olib kelib, ilitadi. Qamoqdan chiqqanidan beri halovati yo‘q. Ich-eti titraydi, qorni bir marta bo‘lsin, to‘ygani yo‘q. Och-nahor yuribdi.

Ikki hafta shaharda tentirab, qamoqda ko‘rmagan azoblarini ko‘rdi. Birorta tanishi uchramadi. Qayrilib qaraydigan biror kimsa yo‘q. Duch kelgan odamdan pul yoki biror yegulik so‘rashga beti chidamaydi, chunki tilanchilikka tobi yo‘q. Undan ko‘ra, o‘g‘irlab qorin to‘yg‘izgani ma’qul.

Eski odatini qilib, biror panada kimningdir bor-budini shilib olsa, birov bir narsa dermidi? Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. Qo‘lga tushib qolmasa bo‘ldi. Qo‘lga tushsa – tamom. Shu bois, o‘g‘irlik qilishga yuragi dov bermaydi. Pana-panada yuradi.

Shaharda durustroq boshpana topish qiyin. Kecha temir yo‘l vokzalida tunab, tunni bir iloj qilib o‘tkazdi. Ammo bu yerda uzoq qolishiga ko‘zi yetmaydi.

Anchadan beri ustara ko‘rmagan soqol-mo‘ylovi tarvaqaylib ketgan, kir tishlari sarg‘aygan, yuvinmaganidan badanidan yoqimsiz hid anqiydi. Xuddi ichida it o‘lganday...”

Butkul ilojsiz holatda qolgan qahramonning keyingi taqdiri nima bo‘ladi? Qamoqdan chiqib kelgan odam hayotda to‘g‘ri yo‘lini topib keta oladimi? Yoki mahkumlikdan ham battar, imkonsiz sharoit uni yana qamoq sari yetaklaydimi?

OSHGAN ADIB




Muallif ko‘nglida mana shunday savollar uyg‘ongan o‘quvchini o‘z ortidan ergashtirib ketadi. Buni qarangki, hikoya umuman boshqa o‘zanga burilib, sahnada kutilmagan o‘zga qahramonlar paydo bo‘ladi.

Sulton Rayev ijodiy faoliyatini kuzatar ekansiz, u yaratgan adabiy makonning kengligi, rang-barangligiga qoyil qolasiz. Asarlaridagi voqea va talqinlar bir-birini takrorlamaydi, lekin ularni birlashtiruvchi bitta nuqta bor – u ham bo‘lsa, g‘oyaviy-badiiy maqsadning aniqligi, falsafiy ruhning teranligida.

5

Adibning 2015-yili Londonda rus tilida nashr etilgan “Jazo” (“Kara”) romani ham aynan ana shunday xususiyatlari bilan e’tiborni tortadi.

Bu asar bir qancha xalqaro ijodiy tashkilotlar, jumladan, Markaziy Osiyo “PEN-klub”i tomonidan “Yilning eng yaxshi ro-



mani” deya e’tirof etilib, yuksak mukofotga sazovor bo‘lgan.

Muallifning yigirma yillik mashaqqatli ijodiy mehnati samarasi bo‘lgan ushbu roman mistik-falsafiy uslubi, qahramonlar ichki kechinmalarining favqulodda yorqin tasviri bilan yozuvchi badiiy mahorat nuqtayi nazaridan yanada baland pog‘onaga ko‘tarilganini namoyon etadi.

Roman syujetiga ruhiy kasalliklar shifoxonasidan qochib chiqqan yetti nafar bemorning boshidan kechirgan voqealar asos qilib olingan. Ular Muqaddas makonni topish va pirovard oqibatda o‘z gunohlaridan forig‘ bo‘lish uchun sahro bo‘ylab mashaqqatli yo‘lga otlanganlar. Adib bu insonlarning alam-iztiroblar, azob va yo‘qotishlarga to‘la hayot yo‘llari, ziddiyatli xarakterlari va achchiq qismatlarini sovuqqon bir haqqoniylik bilan tasvirlaydi.

Kasallarning ayrimlari Muqaddas makon ularning qalbi va ongi, o‘y-xayollari poklangan joyda ekanini anglab yetadilar, boshqalari esa aql-u hushidan butunlay judo bo‘lib, haqiqat ne ekanini oxirigacha idrok etolmaydilar.

Asar qahramonlari tabiiy fe’l-atvoriga ko‘ra g‘oyat xilma-xil, ammo ularning barchasini Muqaddas makonga eltadigan yo‘l va ilon chaqishidan o‘lim topish haqidagi mudhish bir bashorat birlashtiradi.

Muallif to‘g‘ri yo‘ldan adashgan bu gumroh kishilarning qanday og‘ir qilmishlarga qo‘l urib, tubanlashib borganlarini ochiq ko‘rsatadi, ayni paytda ularga nisbatan qalbimizda qandaydir achinish va shafqat hissini ham uyg‘ota oladi.

Adib ruhning abadiyligi, ilohiy jazo, qiyomat kuni savol-javob muqarrar ekani, insonning azaliy mohiyatida mujassam bo‘lgan Rahmon va Shayton bilan bog‘liq hissiyotlar, farishtalar va buzg‘unchi kuchlar o‘rtasidagi kurash haqida teran badiiy mushohada yuritadi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasidan qochib chiqqan bemorlarga yozuvchi Imperator, Tais Afinskaya, Kleopatra, Lir, Chingizxon, Buyuk Aleksandr kabi ismlar beradi. Yettinchi bemor – norasida o‘spirinni esa Qo‘zichoq deb nomlaydi. Shu tariqa roman qahramonlari va ular uchun asos bo‘lgan tarixiy siymolarning kechmishlari, gunoh-kirdikorlarini o‘zaro qiyoslagandek bo‘ladi. Tarixiy voqealarning aniq tasviri mistikani real hodisalarga aylantiradi.

Muallif Muqaddas makon yo‘lidagi murakkab sinovlar orqali qahramonlarga muhim ishoralar berayotgandek tuyuladi. Lekin ularni hamma ham anglab yetolmaydi. Faqat “Xudo sizlar uchun do‘zaxni yaratgani yo‘q, balki sizlarning o‘zingiz uni yaratdingiz”, “Sizlar o‘zingizning inson ekaningizni unutib qo‘ydingiz”, “Inson Haqni bilgan, tanigan hamma joy Muqaddas makondir”, “Jonning so‘rovi – abadiydir” kabi hayotiy hikmatlarni anglab, tushunib yetgan kishilargina najot topgusidir.

Asarni mutolaa qilar ekanmiz, adib ijodiy xayolot osmonida mutlaq erkin parvoz qilgani, biz ko‘nikkan bid’at va xurofot, riyokorlik bilan to‘lgan muhitni nafrat bilan rad etgani, o‘zi ko‘tarilgan shunday ruhiy yuksaklikdan turib, nozik, inja insoniy his-tuyg‘ularni tasvirlashda qotib qolgan qolip va mezonlardan g‘oyat uzoqlashib ketganini his etamiz. Qahramonlar bilan birgalikda biz ham zamon va makon kengliklarida, ong-u shuur qatlamlarida harakat qila boshlaymiz. Shu asnoda inson qalbi naqadar go‘zal va sof bo‘lishi mumkinligiga, dunyoni aslida mehr va ezgulik boshqarishi lozimligiga ishonch hosil qilamiz.

Sulton Rayev ommaviy axborot vositalariga bergan intervyularidan birida “Jazo” romani uning bu yorug‘ dunyoga munosabatining badiiy in’ikosi ekanini ta’kidlagan edi. “Qiyomat kuni – bu axloq tarozisidagi so‘nggi o‘lchovdir. Ortga qaytishning imkoni boy berilgan, undan keyin faqat tubsiz bo‘shliq boshlanadigan hayot-mamot chegarasi... Mening romanim ana shu ma’naviy halokat nuqtasi haqida”, deb ta’kidlaydi adib.

Muallif, “Odamzotni insoniylik maqomiga qaytarish – bugungi kunning eng muhim, hal qiluvchi vazifasidir” (Chingiz Aytmatov) degan chuqur ma’noli fikrni go‘yoki yangicha talqinda davom ettirayotgandek tuyuladi.

Ham shaklan, ham mazmunan go‘zal bu asar roman-rivoyat (roman-pritcha)ga xos xususiyatlarni eslatadi. Unda G‘arb va Sharqning o‘ziga xos falsafiy va diniy ta’limotlari, buddaviylik g‘oyalari ham yonma-yon, uyg‘un holda taqdim etiladi.

Masalan, kitob so‘nggida Kleopatra va Qo‘zichoq notanish bir mo‘ysafid – darveshga duch keladilar. Qariya ertaga yer yuzidagi hayot butkul barham topishini aytib, ularning qo‘liga ikki tup nihol beradi va ko‘pchib yotgan tuproqqa o‘tqazishni tayinlaydi. Bu ramziy lavha muqaddas islomiy kitoblardagi “Ertaga qiyomat degan kun ham daraxt ekingizlar” degan hikmatli da’vatni yodga soladi.

Mutolaa so‘ngida roman o‘quvchi qalbida uzoq vaqt o‘chmaydigan taassurotlar qoldiradi, uning xayolini insonlik mohiyati haqida iztirobli o‘y-mulohazalar chulg‘ab oladi.

6

Adibning “To‘fon” asari ham “tamsil roman” deb taqdim etiladi. U bundan ikki yil avval Shvetsiyaning Stokgolm shahrida o‘tkazilgan xalqaro ijodiy tanlovda ikki yuzdan ortiq badiiy asar o‘rtasida bosh mukofotga loyiq deb topilgan.

Roman garchi “To‘fon” deb nomlansa-da, fikri ojizimcha, uni “To‘fondan so‘ng” deb atash mazmunan to‘g‘ri va teranroq bo‘lib tuyuladi.

Asar voqealari xayoliy, mudhish bir makon va zamonda yuz beradi. Shunday bir zamonki, unda “... dunyo o‘z qonunlari bilan yashab, erkak erkakka uylanganiga, ayol ayolga bosh qo‘shganiga, shunday oila qurganga yo‘l ochilib, odam emas, olam ham to‘liq ifloslanib, iymonning shalog‘i chiqib, inson bandachilik qoidalariga mutlaqo bo‘ysunmay qolgan davr kelgan edi...”

Naqadar tanish, ayni vaqtda jirkanch va qo‘rqinchli, olam muvozanatini izdan chiqarayotgan manzaralar, to‘g‘ri emasmi?

Romanda bor-yo‘g‘i beshta qahramon bor, xolos: sun’iy odam yaratish instituti professori Yan Velmut (u ham bo‘lsa marhum), sobiq ruhoniy Kxe, uning xotini – gen muhandisi Man, bu ayolning sun’iy embriondan tug‘ilgan o‘g‘li Etix hamda Kxe bilan Manning nikohidan dunyoga kelgan qiz – Duna.

Muallif Yer yuzida yuz bergan dahshatli to‘fondan bir mo‘jiza tufayli kichik bir orolchada omon qolgan Kxe, Man, Etix va Dunaning hayoti qanday kechgani, axloqning yemirilishi – insoniyatning yemirilishi bilan barobar ekanini nihoyatda beshafqat, ba’zan esa naturalistik realizm bilan ochib beradi.

Xudoni unutgan, sun’iy odam yaratib, eski dunyoni halokatga mahkum etgan razolat kuchlari Kxeni o‘z e’tiqodidan voz kechishga majbur qilmoqchi bo‘ladilar. Ammo “Chiroq olovsiz yonmaganiday, odam Xudosiz yashay olmaydi”, deb hisoblaydi buyuk iymon va iroda sohibi Kxe.

Adib cheksiz qayg‘u bilan yozganidek, “O‘sha kuni Yer yuzidagi so‘nggi din odami osilishi kerak edi”. Ana shunda barcha muqaddas kitoblar orqali bashariyatga yuborilgan ogohlik qo‘ng‘irog‘i bong urib, ilohiy hukm kuchga kiradi – olamga to‘fon yopirilib, butun borliq suvga g‘arq bo‘ladi. Faqat shu kichik oila suv balosidan qutulib qoladi, lekin ularning birgalikda kechirgan keyingi hayoti boshdan oyoq azob-uqubat va g‘urbatga aylanadi.

Yozuvchi ularning bu kaftdek quruqlik sathida nima yeb nima ichgani-yu nima kiyib yashagani, qisqasi, moddiy hayotini qanday o‘tkazgani haqida bizga deyarli ma’lumot bermaydi. Zotan, uning fikr-u zikrini butunlay boshqa masala, o‘zak bir ma’naviy muammo qamrab olganini ko‘ramiz.

To‘fongacha bo‘lgan davrda “narigi dunyo”da yashab, axloq-odob, insoniylik nima ekanini anglab yetgan Kxe va Mandan farqli o‘laroq, sun’iy embrion hosilasi bo‘lmish Etix va bir yarim yoshida bu yerga kelib qolgan Duna odamiy hissiyot va tuyg‘ulardan mosuvo bo‘lgan holda, yovvoyi, vahshiy hayvonlar kabi voyaga yetadi. Eng tuban instinktlar quli bo‘lmish bu ikki kimsa sodir etgan qilmish-kirdikorlar tasvirlangan sahifalarni o‘qir ekansiz, nafrat va dahshatdan beixtiyor etingiz junjikib ketadi.

Bunday ruhiy azoblarga birinchi bo‘lib Man chidayolmaydi, “o‘zining o‘limi bilan o‘zini yenggisi kelib, Buyuk suvda oqib ketadi” – xuddi “Oq kema” qissasidagi begunoh bola dengizda oqib ketgani kabi.

Farzandlariga Ilohni tanita olmagan, bu yo‘ldagi barcha urinishlari besamar ketgan sho‘rpeshona Kxeni asar so‘nggida asrandi o‘g‘li Etix va tug‘gan qizi Duna o‘z qo‘llari bilan, baayni Iso Masih singari, chorcho‘p – xochga mixlab qatl etadilar... Bu mudhish holatni tomosha qilib turgan, Etix va Dunadan dunyoga kelgan iblis qiyofasidagi Shoxli bola esa “so‘nggi odamning Yer yuzidan yo‘q bo‘lishiga ishonib, ich-ichidan quvonardi”.

Roman cheksiz qayg‘u va g‘ussaga to‘la. U kishi ruhiyatini ezib-parchalab tashlaydi. Ammo bu anduh tosh qotgan ko‘ngillarni eritadigan, fasod to‘la yuraklarni tozalaydigan, so‘qir ko‘zlarni ochadigan yorug‘ bir g‘ussa.

“To‘fon” romani muallifning intellektual-ma’rifiy dunyosi nechog‘li yuksakligini, uning jahon tarixi, adabiyoti va falsafasi, mifologiya va estetikasi, g‘oyaviy va diniy ta’limotlar mohiyatini naqadar keng va chuqur idrok etishini, kosmogonik miqyoslarda tafakkur yurita olish salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Quyidagi parchaga nazar solaylik:

“Eng avval Tangri Osmon bilan Yerni yaratdi. Yer xuddi mana shu orolga o‘xshab kimsasiz, ko‘rksiz edi, uni cheksiz qorong‘ilik pardaday yopib turardi. O‘shanda Xudo yorug‘likni yubordi, yorug‘lik paydo bo‘lib, kun bilan tunni ajratdi. O‘shanda birinchi Kun tong otdi. U suvlarning o‘rtasida havo kengligi bo‘lsin, suvlarni bir-biridan ajratib tursin, deb uni ikkiga bo‘ldi. Havo kengligini Osmon deb atadi, osmonning ostidagi suvlar bir joyga to‘plansin, deb quruqlikni yaratdi. Uni Yer deb atadi... Keyin Tangri uchinchi kuni ... kunduzni boshqarish uchun



Quyoshni yaratdi, tunni boshqarishga – Oy bilan yulduzlarni yaratdi...”

“... Dunyo kamchiliksiz yaralib, zamonlar zamonlarga ulandi. Xudo – Tangri odamni yolg‘iz qoldirmay, uning qovurg‘asidan ayolni yaratdi...”

Endi esa mana bu lavhani o‘qiylik:

“Xabarda andog‘ kelur: izi azza va jalla (Alloh taolo) qamug‘da ashnu (avval) bir gavhar yaratdi. Ul gavharga haybat nazari qildi ersa, ul gavhar erudi. Suv bo‘ldi ersa anda kezin (keyin) yelni yaratdi. Suv uza tushti ersa qum urdi, ko‘puklandi. Ul tutundek og‘di, ul tutundin ko‘kni yaratdi. Ul suv Mavlo ta’oloning haybatidan qaynab kuyuklandi. Ul ko‘pukdin Ka’ba o‘rnicha yer yaratdi. Anda kezin ko‘kni yaratg‘ali tegdi. Ul yaratilg‘an yerni mashriqdin mag‘ribga tegi yozib, keng-u yarliqadi (marhamat qildi). Bu yerlar va ko‘klar bir qat erdi, qudrati bilan ko‘kni yerdin ayirdi. Bu yetti suv yer uzra yaratildi ersa turlanmadi (to‘xtamadi), irg‘anu boshladi. Ani turlandurmoq uchun tog‘larni aning uza qozuq qilib yaratdi.

Yana izi azza va jalla qamug‘ olamni olti kunda yaratdi.

Xabarda andog‘ kelur: yakshanba kuni ko‘klarni yaratdi. Dushanba kuni oyni, kunni, yulduzlarni yaratdi, falak ichida turitti. Seshanba kuni qush-qurtlarni, farishtalarni yaratdi. Chahorshanba kuni suvlarni yaratdi, yellarni, bulutlarni chiqardi, yig‘ochlarni, o‘t-yemlarni yaratdi, undurdi. Ro‘zilar (rizqlar)ni ulashturdi. Panjshanba kuni ujmoh (jannat), tamug‘ (do‘zax)ni, rahmat va azob farishtalarini yaratdi. Azina (odina, juma) kuni olamni yaratdi.

Shanba kuni narsa yaratmadi.

... Ba’zilar aymishlar: Odam tufroqdin yaratildi. Tufroq turmishincha (turgan holatda) ko‘rklik bo‘lur. Yana Havvo etdin yaratildi (Odamning biqini ayagusidin (qovurg‘asidan), so‘l yonindin. Et turmishincha sasir. Aning uchun xotun qarisa ko‘rksiz bo‘lur...”

Vo ajab, qirg‘iz yozuvchisi Sulton Rayev qalamiga mansub matn va turkiy dunyoning ulug‘ va unutilmas adibi, ko‘hna Xorazm farzandi Nosiruddin Rabg‘uziy bitgan satrlar fikran, ruhan va ma’nan bir-biriga naqadar o‘xshash va yaqin!

Bu kabi g‘aroyib misollar bizning – o‘zbek va qirg‘iz xalqlari, barcha turkiy ellarning tarixiy ildizlarimiz, turmush va tafakkur tarzimiz, taqdir va kelajagimiz mushtarak ekanini ko‘rsatadi.

El-yurtimiz qardosh qirg‘iz xalqining Sog‘imboy O‘rozbekov, Sayaqboy Qoralayev, Qaliq Akiyev singari mashhur manaschi-oqinlari, To‘qtag‘ul Sotilg‘onov, To‘g‘aloq Mo‘lda, Ali To‘qamboyev, Tug‘olbay Sidiqbekov, To‘lagan Qosimbekov, Murza G‘afforov kabi shoir va adiblari, Bolat Beyshenaliyev, Bolatbek Shamshiyev, Suymenqul Cho‘qmorov, Tolomush Okeyev, Mar Boyjiyev singari kino va drama san’ati namoyandalarining nomlarini yaxshi biladi. Jahonshumul adib Chingiz Aytmatov esa allaqachon o‘z yozuvchimizga aylanib ketgan.

Sulton Rayev mana shunday atoqli salaflari ishini sharaf bilan davom ettirib kelayotgan inson va ijodkordir.

7

“Quyosh tutilgan kun” qissasini muallif 27 yoshida, 1984-1985-yillarda yozgan. Ushbu mo‘jaz asarda odam bolasining pokiza xilqat o‘laroq dunyoga kelib, aqli to‘lishib, yoshi ulg‘aygani sari qalb dunyosi torayib boraverishi ruhiy-hissiy tahlilga tortiladi.

Qissadagi Quyosh barchamiz bilgan ulkan osmon yoritqichi emas, qalbimizdagi Quyoshdir. Quyosh nuri hammaga barobar tegadi, lekin ko‘ksimizdagi Quyosh hammaga barobarmi, qalb qo‘rimizni insonlarga barobar ulasha olyapmizmi?! Asarda qahramonlar timsolida mana shu zalvorli savollarga javob izlanadi.

Adibning “Chang yo‘l”, “Xonishaning ko‘zyoshlari”, “Quyosh tutilgan kun”, “Malikaning faryodi”, “Haftaning beshinchi kuni”, “Toj”, “Janjaza”, “Jazo”, “To‘fon”, “Antistandart” singari o‘nlab kitoblaridan o‘rin olgan asarlari haqida ham maroq bilan uzoq gapirish mumkin. Ammo bu o‘rinda biz mutolaa lazzatidan bahramand bo‘lish baxtini muhtaram o‘quvchilarimizning o‘zlariga qoldirish bilan cheklanamiz.

Sulton Rayev iste’dodli dramaturg sifatida ham nom qozongan. Uning “Ayol”, “Malikaning faryodi”, “Devor”, “Barsbek”, “Qizlarjon, qizlar” kabi dramalari dunyoning mashhur teatrlari sahnalarida ijro etilgan, xususan, Qirg‘iziston, Eron, Germaniya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tatariston davlatlarida o‘tkazilgan teatr festivallarida bosh sovrin – Gran-prilarni qo‘lga kiritgan.

E’tirof etish kerakki, adib jahon dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini chuqur o‘zlashtirgan holda, asarlarini yangicha shakl va mazmunda yozishga, badiiy ifodada shartlilik va ramziylik unsurlaridan keng foydalanishga harakat qiladi. Masalan, uning “Suflyor” drama-novellasida faqat bir kishi ishtirok etadi – ayol aktrisa bir vaqtning o‘zida ham suflyor, ham spektakl bosh qahramoni obrazlarini yaratadi.

Adib asarlari asosida suratga olingan “Ikkisi”, “Shahar” nomli badiiy filmlar ham kino muxlislari qalbidan munosib joy olgan.

Sulton Rayev qirg‘iz xalqining jasur farzandi, milliy ozodlik harakatining qahramoni Qurbonjon dodhoning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab alohida pyesa va hammualliflikda kinofilm ssenariysini yaratgan. Bu asarlar ham tomoshabinlar tomonidan qizg‘in kutib olinganini qayd etish lozim.

Bundan qariyb qirq yil burun kamina ham atoqli shoirimiz G‘afur G‘ulomning tarixiy essesidan ilhomlangan holda, “Oloy malikasi” deb shuhrat qozongan bu matonatli momomiz haqida “Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot!” nomli hikoya yozgan edim.

Shu sababli sovet davrida bunday qaltis mavzuga qo‘l urish, uni haqqoniy tasvirlash ijodkordan qanchalik katta mas’uliyat, eng muhimi, jur’at va jasorat talab etishini o‘z shaxsiy tajribam misolida yaxshi bilaman.

8

Bugungi kunda mamlakatimiz Turkiy davlatlar tashkiloti va TURKSOYning to‘laqonli a’zosi sifatida ularning faoliyatida munosib ishtirok etmoqda. Ushbu tuzilmalar bilan hamkorligimiz jadal rivojlanib borgani sari biz o‘z dunyoqarashimiz chegaralarini kengaytirgan holda, qardosh xalqlarning madaniyati va san’ati, eng sara badiiy asarlari bilan tanishish, jumladan, jahon miqyosidagi madaniy-estetik jarayonlarda faol qatnashish imkoniga ega bo‘lmoqdamiz. Shu asnoda o‘zbek-qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro madaniy-gumanitar aloqalarimiz tobora mustahkamlanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Biz muhtaram Sulton og‘amiz bilan Toshkent va Anqarada, Bishkek va Bokuda, Astana va Samarqandda, Navoiy va Ashxobodda, Cho‘lponota va Istanbulda ko‘p bor uchrashib, ulkan turkiy oilamizning ma’naviy hayoti, uning istiqbollari, ertaga o‘rnimizga keladigan yosh avlodimizni barkamol etib tarbiyalash masalalari haqida mazmunli, qizg‘in suhbatlar qurganmiz va doimo mana shunday muloqot va gurunglarni intiqlik bilan kutib yashaymiz.

“Siz mening bobom bo‘lasiz”, deb lutf qilaman men goho ism-familiyalarimizdagi o‘xshashlikka ishora qilib.

“Shundaymi? Unday bo‘lsa, eshiting, nabiram”, deydi Sulton aka jilmayib va birgalikda yangi bir tashabbus, yangi bir ijodiy loyihani amalga oshirish taklifini o‘rtaga tashlaydi.

Shu vaqtga qadar Sulton Rayevning qator asarlari mamlakatimizning davriy nashrlarida chop etilib, o‘quvchilar e’tibori va mehrini qozonib kelmoqda edi. Mana, nihoyat, endi bu ajoyib ijod namunalari “Tanlangan asarlar” nomi bilan yaxlit bir kitob holida nashr etilmoqda.

Men noyob insoniy tuyg‘ularni baland pardalarda tarannum etish, Yer yuzini, odamzot qalbini ma’naviy to‘fon va tanazzullardan asrashga, azaliy qadriyatlarni sadoqat va qat’iyat bilan himoya etishga xizmat qiladigan ushbu kitobni yuksak didli o‘zbek kitobxonlariga taqdim etish sharafiga muyassar bo‘lib turganimdan baxtiyorman.

Atoqli adib Sulton Rayev – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a’zosidir. Binobarin, badiiy olami, odamiylik fazilatlari bilan xalqimizga g‘oyat yaqin va qadrdon bo‘lgan bu ulkan ijodkorni biz o‘z yozuvchimiz, deb bilamiz va do‘stimiz, og‘amizga mustahkam sog‘liq, yangi-yangi ijodiy yutuqlar tilaymiz.

So‘z yakunida to‘plamdan o‘rin olgan asarlarni o‘zbek tiliga ixlos va mahorat bilan o‘girgan tarjimonlarimizga, kitobni zamonaviy mazmun va go‘zal dizayn bilan tayyorlagan noshirlarga, bu ezgu ishlarning barchasida jonbozlik ko‘rsatgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga samimiy minnatdorlik bildirishga burchlimiz.

NAVOIYSHUNOSLIK VA QO‘LYOZMA ILMI

O‘zbek mumtoz adabiyotining XI asrdagi Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” dostoni-yu Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asaridagi she’riy parchalardan tortib to 1929-yilga qadar yaratilgan namunalari arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosida bitilgan.

Ana shu ulkan meros orasida buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlari alohida va xos o‘rin tutadi. Hozirga qadar uning asarlari to‘liq holda kirill yozuvi asosidagi eski va lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbolarida chop etildi. Bunda arab yozuvi asosidagi o‘rta asrlar o‘zbek alifbosida bitilgan qo‘lyozmalar matnlari transkripsiya qilindi.

Ammo ba’zan shunday muammoli nuqtalar ham uchraydiki, bunday holatlarda mutaxassisning, albatta, asl manba bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Navoiyshunosning arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosini bilmasligi esa xato talqinlarga sabab bo‘lib qolishi hech gap emas.

Aynan shuning uchun ham o‘zbek filologiyasi yo‘nalishidagi fakultetlarda eski o‘zbek tili, shuningdek, hozirgacha arab yozuvi asosidagi alifbodan foydalanadigan fors tili ham o‘qitiladi. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini bekam-u ko‘st tushunishda fors-tojik tilining ahamiyati ham – katta.

Biroq ochiq tan olib aytish kerakki, mumtoz adabiyotimiz tarixi tadqiqi bilan shug‘ullanadiganlarning ko‘pchiligi arab yozuvini yetarli darajada bilmaydi. Bu esa kirill yoki lotin yozuvi asosidagi matnni talqin etishda xatoliklarga yo‘l qo‘yish xavfini paydo qiladi.

Fikrimizni misollar orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Shoirning mashhurdan mashhur mana bu ruboiysini kirill yozuvi asosidagi alifboda o‘qiymiz:

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki, sevmak ondin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz

Ruboiydagi bosh so‘z – “*umr*”. Bugungi o‘zbek tilida “*umr*” – kishiga bir borgina taqdim etiladigan ne’mat, ya’ni uning bu dunyodagi yashash davri.

Musulmon Sharqi, jumladan, o‘zbek mumtoz she’riyatida ishq – eng asosiy tasvir obyekti. Ishqiy mavzuda ko‘p ruboiylar ham yozilgan. Oddiy o‘quvchi bu she’rni mutolaa qilib, uni, umri lirik qahramon uchun aziz bo‘lgan yorga bag‘ishlangan, deb tushunishi hech gap emas. Bunga ikki jihat sabab yoki asos bo‘ladi. Birinchisi – biz “*umr*” so‘zini, avvalo, “*biror kishining yashagan yillari*” ma’nosida tushunamiz. Ikkinchisi – lirik qahramon “*ey umri aziz*” deb undalma bilan murojaat qilyapti. Demak, undalayotgan shaxs yor bo‘lishi mumkin.

Lekin arab tilida “*umr*” bizda faol bo‘lgan keng ma’nodagi “*hayot*” ma’nosini ham anglatadi. Bunda biror kishining yashagan yillari emas, umuman, hayot ko‘zda tutiladi. Unda lirik qahramon yorga emas, aynan hayotga: *“Ey aziz hayot!*” – deb murojaat qilyapti.

Ko‘rinib turibdiki, ruboiydan ikki bir-biriga qarama-qarshi ma’no-mazmun kelib chiqyapti. Xo‘sh, qaysi biri to‘g‘ri? Shoir bulardan qay birini ko‘zda tutgan?

Bu nozik masalani kirill yoki lotin yozuvi asosidagi alifbolarimizda ifodalangan matn asosida hech ham hal qilib bo‘lmaydi. Mutaxassis oldida shunday vazifa ko‘ndalang bo‘lsa, albatta, u qo‘lyozmani ko‘rishga majbur. Bunda fors-tojik tilini bilish ham talab etiladi. Chunki agar shoir “*men uchun umri aziz bo‘lgan yor*” demoqchi bo‘lsa, “*umri aziz*” so‘zlari arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosida “*umri aziz*” tarzida, ya’ni “umr” so‘ziga arabiy “*yo*” (“*i*”) harfini qo‘shish orqali bitiladi. Chunki o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchasi bo‘lmish “*i*” yozuvda, albatta, aks etishi kerak. Mabodo, “*umri aziz*” birikmasi “*aziz umr*” ma’nosida forsiy izofa bilan kelgan bo‘lsa, “*i*” izofasi yozilmaydi, ya’ni bu so‘zlar qo‘lyozmada “*umr aziz*” shaklida ifodalanadi.

Biz qo‘lyozmani ko‘rganimizda, ruboiyda bu birikma aynan ana shu forsiy izofa bilan kelgani aniqlashdi. Demak, ruboiy lirik qahramon uchun umri aziz bo‘lgan yorga emas, aynan hayotga murojaat tarzida bitilgan.

Ruboiy mazmuni noshoyon qolmasligi uchun satrlardagi ma’no-mazmunni aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bu esa mazkur she’r, chindan ham, aziz hayot ta’rifiga bag‘ishlanganini yana bir karra isbotlagan ham bo‘ladi.

Lirik qahramon aziz hayotni jonidan ham ortiq sevadi (1-misra). Jon nima bo‘libdi?! Bordi-yu, hayotga mehr-muhabbat miqdorini o‘lchash uchun son ishlatiladigan bo‘lsa, uning bu ishqini hisoblashga son yetishmaydi, u hayotni sondan ham ko‘proq sevadi (2-misra). Biron narsani sevishning bundan ortiq darajasi bo‘lmasa, ey aziz hayot, men ana o‘shandan ham ziyod yaxshi ko‘raman seni (3-4-misralar), deydi shoir.

Bu ruboiy mazmunan shoirning “Sab’ayi sayyor” dostonidagi:

Xushdurur bog‘i koinot guli,
Borchadin yaxshiroq – hayot guli

baytiga yaqin keladi va u Navoiy hayotsevarligining oliy bir ifodasi yanglig‘ jaranglaydi. Shuning uchun bu ruboiyni past ohanglarda o‘qishning hech iloji yo‘q.

Modomiki, biz bu yerda qo‘lyozma bilan aloqador masalani muhokama etayotgan ekanmiz, bu ruboiyning Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”dagi variantida yo‘l qo‘yilgan yana bir o‘ta jiddiy bir xatoni ham qayd etishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, “*alif*” harfi o‘zbek alifbosida o‘rni bilan “*a*”, ba’zan esa “*o*” tovushini ifodalaydi. Faqat “o” ko‘zda tutilgan bo‘lsa, “*alif*” ustiga “*mad*” belgisi qo‘yiladi. Hozirgi “*undan*” ma’nosidagi “*andin*” so‘zi vazn, qofiya yoki ichki ohangdoshlik talabi bilan ba’zan “*ondin*” tarzida bitiladi. Navoiy asarlari qo‘lyozmalarida kotiblarning dangasaligi yoxud e’tiborsizligi orqali ba’zan “*mad*” qo‘ymay ketilgan bo‘lishi ham mumkin. Biroq bunday o‘rinlarda mutaxassis matnning shakliy-poetik mohiyatidan kelib chiqib ish tutishi shart.

Tahlil etilayotgan ruboiy 1-, 2- va 3-satrlarining har biri 7 so‘zdan tashkil topgan. Shundan 6 tasi radif tarkibida takrorlanib keladi (*“seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz”*). Bu misralarning faqat birinchi so‘zlarigina qofiya: *“jondin” – “sondin” – “ondin”*.

Afsuski, nashrda 4-misradagi “*ondin*” so‘zi farosatsizlarcha “*andin*” tarzida bitilgani uchun ruboiyda qofiya yo‘qolib qolgan. Boz ustiga, 3-satrdagi “ondin” so‘zi ham “*andin*” tarzida ifodalangan. Holbuki, bu ham qofiyadagi so‘zlar bilan ichki ohangdoshlikni yuzaga keltirishga xizmat qilib turgan edi.

Har qanday harfning uchta xususiyati bo‘ladi. Bular shakli, nomi va vazifasi, ya’ni qaysi tovush yoki tovushlarni ifodalashi. Biz gazetxonlarimizning hammasi ham arab yozuvini bilavermasligidan kelib chiqib, bu gal arabiy harflarning nominigina tilga olgan holda fikr yuritishga tutindik.

Qo‘lyozma bilan ishlash “Xamsa”ning “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Sab’ayi sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarini to‘g‘ri o‘qish va tushunish uchun ham juda zarur. Chunki ularning kirill va lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbolarida bosilgan nashrlari asosida ayrim so‘zlarning aynan qaysi ma’noda kelganini aniqlashning aslo imkoni bo‘lmaydi. Bu, asosan, arab tilidagi ikki va ba’zan undan ortiq tovush uchun bizda bitta harf qo‘llanishidan kelib chiqadi. Gap shundaki, arab tilida bir-biriga yaqin, lekin o‘zaro farq qiluvchi bu tovushlarning ayrimlari bizning tilimizda, umuman, yo‘q. Shuning uchun biz ularning barchasi uchun bitta, ya’ni shunga yaqinroq harf qo‘llashga majburmiz. Masalan, kirill va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbolarida arab tilidagi “*se”, “sin”* va *“sod”* harflari ifodalagan tovushlarning uchalasini ham bitta “*s*” (yoki lotin yozuvi asosidagi alifbomizda esa “*s*”) bilan ifodalaymiz. Xuddi shuningdek, *“zol”, “zayn”, “zod”* va “*z*o” harflari ifodalagan tovushlarning to‘rtalasini ham bitta “*z*”, “heyi hutti” hamda “*heyi havvaz*” harflarini ham bitta “*h*” (yoki lotin yozuvi asosidagi alifbomizda esa “*h*”) bilan yozamiz. Yoki arab tilidagi “*ayn*” uchun ham, *“alif”* uchun ham ba’zan bitta “*a*”ni ishlatamiz.



Oqibat nima bo‘ladi? Arab tilida paronim, ya’ni talaffuzi, eshitilishi, ohangi bir-biriga o‘xshash, ammo ayrim tovush(harf)lardagina farq qiluvchi (masalan, o‘zbek tilidagi *“afzal”* – *“abzal”; “tarif”* – *“ta’rif”; “enlik”* – *“ellik”* va hokazo kabi) so‘zlar o‘zbek tilida omonimga aylanib qoladi. O‘zbek o‘quvchisi ona tilidagi *“ot”* (*“ism”, “hayvon turi”, “otmoq”* fe’lining birinchi shaxs birlikdagi buyruq mayli), *“o‘t”* (*“olov”, “o‘simlik”, “o‘tmoq”* fe’lining birinchi shaxs birlikdagi buyruq mayli) omonimlari muayyan ma’nolarini tagmatn (konteskt)dan bilib olaveradi. Ammo *“ota”* ma’nosidagi *“ato”* arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosida *“te”* harfi bilan, *“bag‘ishlash”, “hadya berish”, “muruvvat qilish”* ma’nosidagi *“ato”* so‘zi esa *“to”* harfi bilan bitiladi. Kirill yoki lotin yozuvi asosidagi alifbolarimizda bu ikki so‘z bir xil yoziladi. Shuningdek, *“ona”* ma’nosidagi *“ano”* so‘zining birinchi harfi arabiy yozuv asosidagi imloda *“alif”, “mashaqqat”, “qiyinchilik”, “azob”, “uqubat”* ma’nosidagi birinchi harfi *“ayn”* bo‘lgan *“ano”,* asli forscha-tojikcha bo‘lgan *“yo‘l”* ma’nosidagi *“roh”* so‘zining oxirgi harfi “heyi havvaz” bilan bitiladigan *“roh”* ham, asli arabcha bo‘lgan *“shodlik”* va majozan *“may”* ma’nosidagi oxirgi harfi *“heyi hutti”* bilan tugaydigan *“roh”* ham kirill yoki lotin yozuvidagi alifbolarimizda bir xil shaklda bitiladi.

Hatto arab tilining o‘zida omonim bo‘lgan so‘zlar Navoiy asarlarida ishlatilsa, uning ma’nodosh ekanini bugungi o‘zbek o‘quvchisi aslo anglay olmaydi. So‘zsiz, bunda mutaxassisning yordami kerak bo‘ladi. Masalan, *“bayon”, “ma’lumot”, “zorlanish”, “yolvorish”* ma’nosidagi *“arz”* ham, *“en”, “kenglik”* ma’nosidagi *“arz”* ham arabchada bir xil, ya’ni birinchi harfi “ayn” bilan bitiladi. Bu ikkisi ma’nodosh, ya’ni omonim, albatta. Yana arabchada *“Yer”, “Yer yuzi”* ma’nosidagi *“Arz”* so‘zi ham – bor. Biroq uning birinchi harfi *“alif”* bilan ifodalanadi. Biz bu uch so‘zni ham bir xil qilib, *“arz”* (yoki lotin yozuvi asosidagi alifbomizda *“arz”*) tarzida yozamiz (Keltirilgan bu so‘zlar va ularning arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosida ifodalanishi haqida yana qarang: Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972). Arabchada paronim bo‘lgan so‘zlar o‘zbekchada omonimga aylanib qoladi.

Demak, qo‘lyozmadan bexabar mutaxassis Navoiyning kirill yoki lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbolarida bosilgan nashrlarini o‘qib, bunday nozik farqlarni aniqlashtira olmaydi.

Nima qilmoq kerak?

Tabiiyki, navoiyshunos, zarurat tug‘ilganida, qo‘lyozmalar bilan ishlay olish salohiyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

“Xamsa”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan Porso Shamsiyev bu beshlikning kirill yozuvi asosidagi alifbomizdagi nashrini tayyorlar ekan, shunday paronimlarni qavs ichida arabiy harflar bilan ifodalash yo‘lini tutgan.

Masala muhim bo‘lgani va ilmda ilk bor bu tarzda ko‘tarilayotgani uchun ularni bir-bir keltirib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

“Hayrat ul-abror”dagi biz qora harf bilan ifodalagan so‘zlarga e’tibor qiling:

1. ***Arz*** *u falak yo‘qidin-u boridin,*
   Borchaning ixfosi-yu izhoridin.

2. *Aylamaging afvi xato, bas, qani?*
   Bahri karam birla ***ato****, bas, qani?*

3. ***“Ho”*** *i muhabbat anga-o‘qdur nasib, –*
   Kim ani Haq dedi o‘ziga “habib”.

4. *Ahli-yu avlodi-yu atboig‘a,*
   Oli-yu ahfodi-yu ***ash’yoig‘a.***

5. *Chunki bu hayrat aro ranj-u* ***ano,***
   Foniy etib xojani, balkim fano.

6. *Kunduz o‘kush ranj ila muzdurluq,*
   Kulbag‘a bermak kecha ***ma’murluq.***

7. ***Iz*** *tilasang, ayla qanoat tama’,*
   Masnadi izzat uzadur “man qana’”.

8. *Har kishi hamkim, bu guhar bor anga,*
   Ranj-u ***ano*** *doim erur yor anga.*

9. *Qilsa balo zaxmlari chorasi,*
   Butsa ***ano*** *o‘qlarining yorasi.*

10. *Mahri* ***muajjal*** *bu dam ar jon bo‘lub,*
    Tongla ***muajjal*** *anga iymon bo‘lub.*

11. *Mehri* ***muajjal*** *tilabon jon olib,*
    So‘ngra ***muajjal*** *tilab, iymon olib.*

“Farhod va Shirin” dostonida:

1. *Ketur ilgimga dog‘i jomi tavfiq,*
   Yetur ko‘nglumga dog‘i ***roh****i tahriq.*

2. *So‘zum* ***roh****in qilib ravshan safodin,*
   Shafoat jomi yetkur Mustafodin.

3. *Ki chun shah qildi Mulkoroni* ***ma’mur,***
   Binolar mulkdin qilmoqda ***ma’mur.***

“Sab’ayi sayyor” dostonida:

Subh rindi chu qildi mayli sabuh,
Roh*i mehr anga toza ayladi ruh.*

“Saddi Iskandariy” dostonida:

1. ***Ato****si qilib bahr-u kong‘a jafo,*
   Anga bahr-u kon dog‘i qilmay vafo.

2. *Qilib har birin lutfdin bahramand,*
   Ato *birla ta’zimidin arjumand.*

Bu misollarning barida paronim so‘zlar ishlatilgani o‘quvchilarni chalg‘itmasligi uchun qavsda arabiy shakl berilishi kerak. Shunday qilinmagan nashrlar bilan ishlashda navoiyshunos so‘zlarning ma’nosi va bayt mazmunini qo‘lyozmalar bilan solishtirish asosidagina aniqlashga majbur bo‘ladi.

Navoiyshunosning qo‘lyozmalar bilan ishlashiga to‘g‘ri keladigan jihatlar shulardangina iborat emas. Shoir o‘z asarlarida harfiy san’atlardan ham mahorat bilan foydalanadi. Ular shundayki, muallif arab alifbosidagi harflarning shaklidan kelib chiqqan holda badiiy ifodalar qo‘llaydi.

Shoirning mana bu ruboiysini arab yozuvidan, ya’ni qo‘lyozmalardan bexabar mutaxassis mutlaqo tushunmaydi:

“Jon”imdagi “jim” – ikki “dol”ingg‘a fido,
Ondin so‘ng “alif” – toza niholingg‘a fido.
“Nun”i – dag‘i anbarin Hilolingg‘a fido,
Qolg‘an iki nuqta – ikki xolingg‘a fido

(Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 3. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 563).

Chunki bu yerda lirik qahramon yorga murojaat qilib, *“jon”* deganda uning arabiy yozuvda bitilishidagi harflardan kelib chiqqan holda badiiy tafakkur qiladi. Bu so‘zning birinchi harfi *“jim”.* Bu harfning yozilishini shoir ikkita *“dol”*ga o‘xshatadi. Chindan ham, bir qarashda “jim” ikkita dolni birlashtirganga o‘xshaydi. Lekin she’rda *“dol”* istiora bo‘lib kelgan. Bu istiora esa yorning ikki gajjagini bildiradi. 2-satrda so‘z o‘rtasida kelgan *“alif”* istioraviy yo‘sinda yorning toza nihol kabi tik qomatini anglatib kelgan. 3-misrada *“nun”* yorning anbar hidli Hiloli, ya’ni yangi chiqqan Oy kabi qoshiga ishora qilingan. Bunda ham *“nun”*ning yoy shaklida bitilishi ko‘zda tutilgan. 4-qatorda esa *“jon”* so‘zidagi *“jim”*ning ostida va “nun”ning ustida kelgan ikki nuqta yorning ikki xoliga fido ekani aytiladi.

Qo‘lyozmalar bilan ishlay olmaydigan mutaxassis arabiy yozuvdagi ifodasida *“Sab’ayi sayyor”*dagi mana bu bayt boshidagi *“ko‘z”* bilan oxiridagi *“ko‘r”*ning farqi bittagina nuqtada ekanini faromush qilishi hech gap emas:

Ko‘z *uza nuqta qo‘ymay, aylab zo‘r,*
Mardumi bo‘lmag‘ondek aylasa ***ko‘r*** (1192).

Yoki shu dostonning mana baytidagi *“g‘ayb”* va *“ayb”* kalimalari ham o‘zaro bir nuqtadagina farq qilishini hamma ham bilavermaydi:

G‘ayb*din nuqtaye yo‘nub amdo,*
Xatt aro ***ayb*** *aylasa paydo* (1192).

Shuning uchun Porso Shamsiyev nashrda ularning arabiysini qavsda berib ketgan.

Mazkur baytlarda shoir paronim so‘zlarni qo‘llagan: *“ko‘r” – “ko‘z”; “g‘ayb” – “ayb”.* Ammo bu yerda butun dardi pul topishdan iborat bo‘lgan savodsiz xattotlar tanqid qilinyapti. Buni bulardan oldingi baytlardan bilib olamiz:

Yana kotibki, tez etib xoma,
Istagay naqsh qilsa bu noma.
Neki men yozdim, uyla sursa qalam,
Ne raqam qildim, oni qilsa raqam.

Baytlarda taxalluf aylamasa,
Lafzlarda tasarruf aylamasa.

Oq o‘lub anga nomayi a’mol,
Tushsun ilgiga xomayi iqbol.

Kimki, yozmoqqa muzd qildi havas,
Borcha maqsudi muzd bo‘lsa-yu, bas.

Qora pul uzra mojaro qilsa,
Yuzidek safhani qaro qilsa.

Bir nuqtani tashlab ketish bilan *“ko‘z”* so‘zini *“ko‘r”, “g‘ayb”* kalimasini esa *“ayb”* deb yozgan bunday xattotlarni shoir duoyi bad qiladi:

Xomasiga ko‘zi midod o‘lsun,
Ul qarodin anga savod o‘lsun.
Tili shaq bo‘lsun, uylakim, xoma,
Orazi tiyra, uylakim, noma.

Demak, bundaylarning qalami ko‘ziga qora rang tortsin, ular bundan savod (xulosa ham) chiqarsin, tili qalam uchi kabi o‘rtasidan kesilsin, yuzi yozilgan xat kabi qora bo‘lsin, deydi shoir.

Ayrim arabcha so‘zlarda bir tovush ikki bor takrorlanadi: *“durr”, “xatt”, “sirr”* va hokazo. Holbuki, turkiy tillarda bir bo‘g‘inda ikki undosh deyarli uchramaydi. Faqat *“tinch”, “qo‘nj”, “sevinch”. “quvonch”, “to‘rt”, “mo‘rt”, “murch”* kabi jami 25-30 tacha turkiy so‘zdagina bir bo‘g‘inda ikki undosh keladi, xolos. Shuning uchun tilimizda odatda *“durr”, “xatt”, “sirr”* kabi so‘zlarni oxirgi undoshini tushirib qoldirgan tarzda qo‘llayveramiz. Lekin Navoiy she’rda, vazn taqozosiga ko‘ra, ularni sof arabiy shaklda, ya’ni ikki undosh bilan ishlataveradi ham. Noprofessional mutaxassis nashrda bu so‘zlar oxiridagi undoshning bittasini qisqartirib yozadi va oqibatda vazn qattiq buziladi. Hatto, “Xamsa”ning 1958-yilgi nashrida ham shunday xatoga yo‘l qo‘yilib, yuqorida keltirilgan bir bayt:

G‘aybdin nuqtaye yo‘nub amdo,
Xat *aro ayb aylasa paydo (1192), –*

tarzida xato bitilgan. Bundagi “xatt” so‘zining bitta “t” bilan yozilishi baytda vaznning buzilishiga olib kelgan. Bunday holatda oddiy o‘quvchi noshirning xatosini Navoiyga to‘nkashi hech gap emas. Holbuki, Navoiy vazniy saktalikka yo‘l qo‘ymagan edi.

Ulug‘ shoirning yuqorida keltirganimiz “qarg‘ish”i – qo‘lyozma bilan ishlashni bilmaydigan navoiyshunoslarga ham birday tegishli. Chunki bunday misollar tahlilida mutaxassis yo adashadi, yo aynan tishi o‘tmagani uchun ularni ko‘rib, ko‘rmaslikka olib o‘tish yo‘lini tutishga majbur bo‘ladi.

Taklif sifatida quyidagilarni bayon etamiz:

birinchidan, oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek filologiyasi o‘qitiladigan fakultetlarida arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosini puxta o‘rgatish;

ikkinchidan, Navoiy asarlarining bundan keyingi ommaviy nashrlari havolalarida ham shunday paronim so‘zlar qo‘llangani aytilib, ularning matndagi ma’nosini izohlab ketish usulidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;


uchinchidan, o‘zbek adabiyoti tarixi mutaxassislari islom Sharqi mumtoz so‘z san’atining o‘ziga xos poetik xususiyatlaridan yaxshi boxabar bo‘lishi;

to‘rtinchidan, navoiyshunos fors-tojik tilini yaxshi bilishi;

beshinchidan, navoiyshunos, imkoni bo‘lsa, arab tilini bilishi, hech qursa, bu lisonning eng muhim xususiyatlaridan boxabar bo‘lishi – zarur.

Xullas, yangi davr navoiyshunos oldiga ham yangi talablar qo‘yyapti.

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.



“ILMSIZ INSON MEVASIZ DARAXT KABIDUR...”

yoxud Abdulla Avloniy ma’rifati

Boshlanishi 1-sahifada.

Shoirning axloqiy dasturi va ma’naviy mezoni shunday. Avloniyning bir necha juzdan tarkib topgan “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” majmuasi o‘z vaqtida shuhrat topdi; maktablarda darslik sifatida o‘qitildi. Uning she’rlarida ma’rifatparvarlik, jadidona g‘oyalar, xususan, ilm-u adabni ulug‘lash mavzusi yetakchi o‘rinda turadi. She’rlarini shunga mos “Maktab”, “Maorif nadur?”, “Jaholatdan nafrat”, “Ilm ahvolindan bir manzara”, “Ilmga targ‘ib”, “Ilm” kabi nomlar bilan atadi. Avloniy fikricha, ilm barcha xursandchiliklar uchun ma’dan, barcha fazl-u karamlar manbayidir. Ilmsizlar uchun jahonning keng ayvoni tor bo‘lib qoladi, ilmsizlarga butun “dard-u alam yor” bo‘ladi, ilmsiz odam tirikchilik yo‘llarida adashadi. “Ilm ikki jahon shavkatining barposi”. “Ilm bir nuri ziyo” – uning jilosi ketmaydi. Ilm nuri odamni aziz qiladi, ilmli insonga xorlik va zorlik yaqin yo‘lamaydi. Shoir xitoban yozadi:

“Ayo ey sohibi urfon!
Vatan bog‘inda faryod et!
Otib tashla arodin eski
odatlarni, barbod et!
Maorif-la funun
tahsilina qil rahnamolig‘ san,
Qarong‘uda qolan millatni nuri
ilma irshod et!”

Ilm nuri, ilm manfaati, ilm yo‘li, ilm saodati – bular shoir nazmida juda ko‘p takrorlanadi. Abdulla Avloniy ilmni ulug‘lab yana yozadi: “Ilm inson uchun g‘oyayi oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnomolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ul bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...”

Darhaqiqat, ilm inson qalbiga sayqal beradi, ma’naviy-ruhiy dunyosini yoritib go‘zallashtiradi. Insonni ulug‘ martabaga ko‘taradi. “Ilm” so‘zi oddiy o‘qish-yozishdan tortib, cheksiz borliq haqiqatini, insondek murakkab xilqat mohiyatini anglash, bilish kabi qator tushunchalarni o‘zida jamlaydi. Garchi ilmga mohiyat e’tibori bilan diniy va dunyoviy tarzda tasnif berilsa ham, ular orasida, aynan inson ma’naviyatiga aloqadorligi jihatidan, ziddiyat yo‘q. Aksincha, biri ikkinchisini taqozo etadi, to‘ldiradi, mukammallashtiradi. Qora bulut quyoshning yuzini qoplab, nurlarini to‘sib olganidek, jaholat, xurofot va bid’at ham haqiqat yog‘dusini xiralashtiradi. Oydin, haqqoniy tushunchalar rangini qoraytiradi. Teran fikrlarni mujmallashtiradi. Bular, tabiiyki, vaqtincha...

Abdulla Avloniy insonga badan tarbiyasi bilan birga fikr tarbiyasi muhimligini aytadi. Yaxshi tarbiya olgan odamning fikri quvvatli, ziynatli va keng bo‘ladi. “Fikr oynasi”ni zang bosadigan bo‘lsa, ruhi kirlanadi, qalbi nursizlanadi.

Abdulla Avloniy she’rlarida yor, gul, bulbul, yil fasllari – bahor, yoz, kuz, qish kabi obrazlar uchraydi. Ammo ularning mazmuni, mohiyati an’anaviy mumtoz she’riyatdagi ramzlardan nisbatan farq qiladi. Jadid shoirlari nazmidagi obrazlarning yangicha mazmun kasb etganiga diqqat qaratgan munaqqid Vadud Mahmud yozadi: “Bu shoirimiz ham oshiqdur, ma’shuqasi xalqdur, millatdur. Millat va xalqiga muhabbati uning ishqidur... Uning bu hayajonlari yasama emasdur, chindur, tabiiydur. U ko‘z yoshi to‘ksa, millat uchun to‘kadur, birovdan xafalansa, millat holiga boqmagani uchun xafalanadur. Birovdan xursand bo‘lsa ham millati, xalqi uchun bo‘ladur”. Samarqandlik jadid shoir Sidqiy Ajziyga qarata aytilgan bu fikrlar Avloniy ijodiga ham mos keladi. Zero, Abdulla Avloniy ham eski va yangi davr, eski va yangi adabiyot rishtalarini bog‘lovchi ijodkor edi. U ham qadimiy Sharq she’riy shakliga o‘z adabiy-estetik qarashlarini olib kirdi va shu yo‘l bilan millatni ilm-ma’rifatga, o‘zligini anglashga, umuman, ma’nan uyg‘oq bo‘lishga chorladi. Abdulla Avloniylar avlodini adabiyotshunos Abdurahmon Sa’diy va’z-nasihatlar yozgan “o‘gitchi shoirlar” deb atagan edi. Umumiy birlikka erishish, millat va el-yurtni yuksaltirish, o‘quv va maktab-maorif ishlarini rivojlantirish, ilm va hunarni targ‘ib etish, iqtisodiy va ma’naviy ahvolni yaxshilab, madaniy jihatdan taraqqiy qilish – ana shu “o‘gitchi shoirlar” qalbidagi ezgu niyatlar edi. Shu bilan birga, Sa’diy o‘tgan asrning 20-yillarida Abdulla Avloniy qatoridagi shoirlar haqida: “Ular XV asrning tili, uslubini, shaklini, vaznini XX asrda biroz yengillashdiraroq davom ettirdilar”, deb yozdi. Bu fikrda ham asos bor.



Jadid shoirlari yigirmanchi asr avvalida turk shoirlariga ergashdi, fuzuliyona nazmiy mashqlarini taqdim etishdi. Shuning uchun ham Avloniy she’rlarida “Maskani firdavs bog‘indan xabar verganlaring”, “Har darding o‘lur chorasi, har yig‘layan o‘lmaz”, “Bunlaring turmushlari bir darsi ibrat go‘starur” kabi fuzuliyona misralar kuzatiladi. Shuningdek, “bola”, “bor”, “yig‘lasin”, “ko‘rsat”, “ayladi” kabi o‘nlab so‘zlar o‘rni bilan “jo‘juq”, “vor”, “og‘lasun”, “go‘star”, “aylayur” singari muqobili aralash qo‘llaniladi.

Bunga o‘xshab “shevada Fuzuliy yo‘lini tutgan” holatlari Avloniylardan o‘tib, Cho‘lponning ayrim she’rlarida ham davom etdi. So‘ngra to‘xtadi. Fikrda uyg‘onish va millat fikrini uyg‘otish, badiiy adabiyot – she’riyat tilini yangilash, yangicha adabiy shakllarni sinab ko‘rish barcha jadid adiblari, jumladan, Avloniy ijodiga ham xos xususiyatdir. Dunyo adabiyoti namunalariga mos roman va hikoya janri, shuningdek, dramatik asarlar ham jadid adabiyoti negizida maydonga keldi. Behbudiyning “Padarkush” fojiiy dramasidan keyin Nusratulla Qudratulla, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘z dramalari bilan maydonga chiqdi. Adabiyotshunos Shuhrat Rizayev “Jadid dramasi” kitobida “o‘zbek jadid dramaturgiyasining shakllanish davrida nisbatan ko‘p pyesalar yozgan musannif-lardan” biri sifatida Abdulla Avloniy faoliyatiga alohida urg‘u beradi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va Siz”, “Purto‘g‘liyo inqilobi” kabi dramalar yozgani, sahnada rollar ijro etgani, rejissyorlik qilgani ma’lum.

Abdulla Avloniyning millat tarbiyasi bobida qayg‘urib, Sa’diy Sheroziyning axloqiy risolalariga havaslanib “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli didaktik ruhda yozgan asari o‘z vaqtida sevib o‘qildi va hamon o‘qilmoqda. Avloniyning “tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” degan fikri aynan yuqorida nomi aytilgan kitobidan olingan. Bu fikr asrlardan asrlarga o‘tib, abadiyat yo‘liga chiqqan hikmatlar sirasiga kiradi.

Avloniy milliy til va milliy adabiyotga urg‘u berib yozadi: “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur... O‘zi bilgan-bilmagan turli tillarning so‘zlarini “aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur”. Haq gap ham shu.

“Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bilan hosil bo‘lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo‘lsa ham, o‘zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas. Fikri salomat kishilarning qalbi halim, tab’i karim bo‘ladi”. Tarbiya bobida bunday hayotiy hikmatlar, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislari, dunyo allomalarining aforizmlari bilan to‘yintirilgan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari hamon o‘z qadr-qiymatini saqlab keladi.

Gohida jadidlarning bir xildagi fikrlari nashrlardan nashrlarga, kitoblardan kitoblarga, maqolalardan maqolalarga ko‘chib yuradi. Holbuki, bu adiblar ijodiy merosida ko‘chirma olishga va, eng muhimi, olingan ko‘chirmalar hikmatiga amal qilishga arziydigan mulohazalar juda ko‘p. Abdulla Avloniy asarlari fikrimiz uchun dalil. Allomaga ko‘ra, eng afzal xulqlardan biri “nazari ibrat”, ya’ni dunyodagi har narsaga ibrat ko‘zi bilan qarashdir. Olamga ibrat ko‘zi bilan qaramagan odam haqiqat nurlaridan bebahra qoladi. Jumladan, o‘tgan ajdodlarning ma’naviy mulkiga, Abdulla Avloniydek adiblar ijodiga ham aynan bugun ibrat nazari bilan qarash lozim. Shunda haqiqat zuhur etadi, shunda ma’rifat nuridan ko‘ngillar yorishadi.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

QATAG‘ON QURBONLARI

Qushbegiyev Abduqodir – 1882-yili Andijonda tug‘ilgan. Xudoyorxon tomonidan bosh harbiy qo‘mondon etib tayinlangan. Abduqodir 1897-yil, otasi vafot etgach, onasi bilan Andijonga, amakisi Shermuhammad Aliqulov xonadoniga ko‘chib kelishadi. Bu yerda rus-tuzem maktabi va gimnaziyada ta’lim oladi. U “Taraqqiyparvarlar” jamiyatidagi inqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoqqa hukm etilgan. Jazoni Solovki orolidagi konslagerda o‘tagan. Ozod bo‘lgach, Toshkentda bolalar uyida ishlagan. 1937-yil 9-avgustda yana qamoqqa olinib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi, 1-bandi bilan ayblangan. U o‘ziga qo‘yilgan ayblarni rad etgan. 1937-yil 10-avgustda mudhish uchlik hukmi bilan otilgan. 1989-yil 15-sentyabrda oqlangan.

Xo‘jayev Nizomiddin – 1886-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Turkistonning “Ittihod va taraqqiy”, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotlari faol a’zosi. Turkiston muxtoriyatini tashkil etishda yetakchilardan biri. 1920-yil sentyabrida Bokudagi Sharq xalqlari qurultoyida Anvar Poshsho bilan uchrashgan, u uyushtirgan yig‘ilishda qatnashgan. 1935-yil 5-noyabrda Nizomiddin Xo‘jayevning uyida tintuv o‘tkazilgan va u hibsga olingan. Kirov oblast sudi jinoiy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati 1938-yili RSFSR Jinoyat kodeksining 58-10-moddasi bilan uni 4 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilgan.

Inog‘omov Rahim – 1902-yili Toshkentda tug‘ilgan. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1926-yil 8–10-sonlarida uning “Ziyolilar to‘g‘risida” sarlavhali maqolasi bosilgan. Maqola bahs uyg‘otgan. Unda o‘zbek milliy ziyolilarining oktyabr to‘ntarishigacha va undan keyingi faoliyati yoritilgan, mustaqillikka intilishda tarixiy rolni ziyolilar o‘ynashi kerakligi baralla aytilgan. Sovet tuzumiga qarshi muxolifat sifatida qarshi turgan arbob, o‘z zamonasining yetuk ziyolisi Rahim Oxunjonovich Inog‘omov istiqlol yo‘lida shahid ketgan. Uning porloq xotirasi avlodlar qalbida mangu barhayotdir.

To‘raqulov Nazir – 1892-yili tug‘ilgan. Qo‘qondagi rus-tuzem maktabi (1905) va savdo bilim yurtini (1913) tugatgan. 1918-1919-yillarda sovet idoralarida turli lavozimlarda ishlagan. SSSRning Hijoz davlatidagi (hozirgi Saudiya Arabistoni) Bosh konsuli va Muxtor elchisi vazifalarida ham ishlagan (1928–1936), Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini yaxshi bilgan. N.To‘raqulov Moskva va Leningraddagi Sharq xalqlari instituti ilmiy xodimi va prorektori lavozimida xizmat qilgan. Biroq sovet hukumatiga, bolsheviklar partiyasiga qanchalik sodiq bo‘lmasin, mustabid tuzumning qatag‘oniga uchragan. 1937-yil 15-iyunda qamoqqa olinib, otuvga hukm qilingan. 1958-yilda oqlangan.

To‘raqulov Qodir – 1900-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Otasi 1918-yili bosmachilar tomonidan o‘ldirilgan. 1917-yil Qo‘qon oliy boshlang‘ich bilim yurtini bitirgan, 1-Turkiston otliq polkida xizmat qilgan. Farg‘ona, Qo‘qon, O‘sh, Konibodom, Buxoro, Toshkent, O‘ratepada bosmachilarga qarshi kurashgan.

Xo‘jayev Porso – 1877-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi o‘laroq, uning yig‘ilishlarida faol qatnashganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi kurashganlikda, aksilinqilobiy, millatchi tashkilotlar rahbarlari bilan aloqada bo‘lib, targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. P.Xo‘jayev sovet hukumati tomonidan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60–67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlarda aybdor deb topilib, otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 25-oktyabrda Toshkentda ijro etilgan. P.Xo‘jayev 1962-yil 26-noyabrda oqlangan.

Muzaffarov Rahmatulla – 1898-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zo bo‘lib, O‘zbekistonni SSSRdan ajratib olish va burjua davlatini tuzish masalalari muhokama qilingan markaz yig‘inlarida faol qatnashganlikda, fosh etilgan millatchilarga yordam ko‘rsatishni tashkil etishda tashabbuskor bo‘lganlikda ayblangan. R.Muzaffarov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60–67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha aybdor deb topilib, otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 25-oktyabrda Toshkentda ijro etilgan...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TABDIL

Mahmudxo‘ja BEHBUDIY

ZO‘RAKI BOY

Oxirgi vaqtlarda biz – turkistonlilar tijorat, hatto, ziroat va do‘kondorlik ishlarinda na uchun sinarmiz, ya’ni iflos etarmiz. Muning eng birinchi sababi ilmsizlik, to‘g‘risi aqlsizligimizdur. Ore, bilib turub o‘z zararini qilmoq aqlsizlikdur.



Chunonchi, “Zo‘raki boy” janoblarini o‘n ming so‘mlik merosi, bog‘ va xonasi bor edi. Bu odam agarda bog‘ini yaxshi ishlatsa, muvofiqi shariat va insof tiriklik qilsa, isrofgarlik etmasa, to‘y va azo deb o‘zini barbod etmasa, albatta, ortdurardi. Bu odam o‘zidek va hatto, o‘zidan oz nimarsalik kishilarni ko‘rarga o‘g‘ul to‘yig‘a ikki-uch ming so‘m sarf etar. O‘g‘lig‘a xotun olib bersa yana bir, ikki, uch ming so‘m sarf etar. Bir o‘luk ko‘msa, besh-olti yuz so‘m xarj etar. Hatto, olti oylik balasini sochini olganda va yo olti kunlik balasini beshikg‘a bog‘laganda bir-ikki yuz so‘m sarf etar. Fotiha, chanladi (charlari), dubora-talabon, kalutapo‘shon (ayol kiyadigan bosh kiyim), mo‘ylabgiron… va boshqalarini nari qo‘yduk, xulosa, bechora o‘n ming so‘mlik mulkdor qaraydurki, ish bo‘lmaydur. O‘g‘ul va qizlar katta bo‘lub turubdur. To‘y lozim, xatna, nikoh, uning orqasidan keti uzulmas bir suruk ma’raka va qoidalar lozim. Ko‘bdan chiqib bo‘lmaydur. Bechora odam o‘ylavg‘a tushar. To‘y qilmoq uchun bir-ikki tanob bog‘dan va yerdan sotsa, ko‘zi qiymaydur. To‘y qilmasa, bo‘lmaydur.

Bas, noiloj o‘ylab-o‘ylab, do‘kondorlik, ya’ni bazzozlik va choyfurushlik va yo boshqasini qilmoqchi bo‘lub do‘kon ochar. Bonkalardan kredit (e’tabar) ochar. O‘n ming so‘mlik merosiy mulki bor ekan, besh bonkadan uch ming so‘mdan 15 ming so‘m qarz olur. Choy, qizil mol, gazvor, chinnivor, kanap-charchinvor, xullas, har nav kantur va fermalardan ham bir-ikki yilg‘a yetmasdan bir o‘n besh ming so‘m urar. Bir vaqt ko‘rarsan 30 ming so‘m ishlatguchi qib-qizil bir katta boy. O‘zini muft dehqonligi ila ro‘zgor qilur ekan, bir ming so‘mni butun umrig‘a sinamagan 30 ming so‘mlik mol ichinda ko‘mganini ko‘rub, bizni dehqonboyni avvalgi torgina aqli ham uchdi-ketdi. Qavm-u qarindoshdan veksel olib bonkag‘a qo‘yar. Sasib yotgan va alarni so‘zincha, egasiz fabrikant molini to‘g‘ri kelgan kishig‘a nasya berar. Bir tarafdan yaxshi ot va arobalarg‘a havasi ketar. Ekipaj faytunlar va maskav otlari olinur. Digar tarafdan, hovlig‘a zamona odami o‘lturaturgon imoratlar qilinur. Usti temur, osti taxta, devori rangorang shishakori shahnishinlar, bir necha mehmonxonalar va onda zamona asboblari olinur. Bu imoratlarni va dastgohni odamlarg‘a ko‘rsatmoq uchun ziyofatlar, bazmlar kerak. Ferma va bonkalarni mudir va a’zolarini-da alafrang shampanskilik ziyofatlar qilmoq kerak.

“Zo‘raki boy” janoblarini(ng) xotun va o‘g‘li ham mundan rang olib, isrofg‘a yuz qo‘yar. Chunki Xudo bergan davlat qayerdan kelib, qayerg‘a ketar? Zo‘raki boyni o‘zi ham bilmas. Bir vaqt to‘y navbati yetti. Endi terlamoqni zamoni keldi. Mashvaratlar, pro‘gramlar tuzalur. Ho‘qand, Andijon, Turkiston va Toshkanddan boshlab, Marv, Buxoro, Karki va Afg‘oniston hududincha shuhratlik boylar va ko‘rmagan oshnolar ro‘yxat bo‘lur. Ol-a… Muncha odamg‘a xat yozmoq mushkul. Bosmaxonada zarhallik xatlar siporish berilur. Yoddan chiqgoni tilgirom ila taklif qilinur. Xivadan, Farg‘ona va Buxorodan mashhur juvon va mutrib va xonandalar chaqirilur. Bazmda firmalarning mudir va bonkalarning muboshiri, hatto, rajoli hukumat taklif qilinur. U qadar isrof, u qadar behuda masorif bo‘lurki, hisobi singandan so‘ngra ma’lum bo‘lur. Bu to‘yni bazmi, juvoni, ko‘bkarisi, fashangi, in’omi u qadar ko‘b, u qadar qiziq bo‘ldiki, munga o‘xshagan boshqa bir zo‘raki boy ham o‘zini anga o‘xshatmoq, balki o‘tkarmoq uchun o‘zini jardan tashlamoqg‘a hozirlanur. Ya’ni mundan ziyoda etmoqchidur. Biz avvalgi zo‘raki boyning to‘yi so‘zini tamom qilgan yo‘q eduk, boyg‘a yana bir nikoh to‘yi voqe’ bo‘ldi, ya’ni janoblari yosh xotun oldilar. Tabiiy, ellik-oltmish yasharg‘a 15 yasharni ikki-uch ming so‘m masorifsiz berilmaydur.

So‘zni qisqa qilayluk. Bir vaqt eshitilur, zo‘raki boy; bonkag‘a pul yetkurolmaydurlar. Imonsiz sarrof ham taqataq shildirni bilib, pul bermaydur. Ish “pravaucho‘t”g‘a qoldi. Bir necha vaqt so‘ngra yana eshitilurki, veksellar “pratest” bo‘ldi. O‘n ming so‘mlik mulk ila do‘kondagi besh-olti ming so‘mlik mol hajz (arest)g‘a olindi. Hisob qilib ko‘rulsa, bilinurki, 30 ming so‘m qarz maydonda. Otadan qolgan mulk ila to‘rt-besh ming so‘mlik aroba g‘altak ot-u tek do‘kon mol endi nima bo‘lur dersiz? Olti oy bir yilg‘acha avvalgi mulklar sudg‘a sotilib, bechora zo‘raki boy ahl-u ayoli ila darbadar qolur. Chunki aqalli martaba singan yahudiydan ibrat olib, birgina havlisini ham xotuni otig‘a o‘tkarmagan edi. Inollo lo yuhibbul musrifin. Ya’ni Alloh taolo isrof qilguvchilarni do‘st tutmaydur. Zeroki, boy janoblarini tarjimai holidan “Oyna”-da ko‘b ko‘rungon edi, ammo qisqartib yozildi. Balki baqiyasi bo‘lur.

“Oyina” jurnali,
1914-yil, 16-son,
270–273-betlar.

FIKR



MEN KO‘RGAN BIR TARIX KITOBI

Bundan ko‘p yillar avval, yanglishmasam, o‘tgan asrning 80-yillari qandaydir ish bilan Toshkentdagi bir shifoxonaga borib qoldim. Shifokor qabulida uzundan uzun navbat kutayotgan odamlar orasida o‘ttiz yoshlar chamasidagi horg‘in, eti suyagiga yopishgan, rangpar ayol bilan izma-iz navbatda turdik. Olis qishloqdan shaharga najot izlab kelgan bu ayol o‘ng qo‘lida kasalmand bolasini, chap qo‘lida bir jild kitob hajmidagi qalin sarg‘ish daftarni mahkam ushlab turardi. Bola har nafasida bir ingranar edi.

– O‘g‘ilmi, qizmi? – degan so‘rog‘imga ayol zo‘rg‘a:

– O‘g‘il, – deb javob berdi.

– Bolaga nima bo‘lgan?

– So‘ramang, – dedi ayol yig‘lamsirab, – kasali bitta emas, ko‘p... Buyrak, o‘pka, yurak, jigar, bosh, hammasidan ulushimiz bor. Ko‘rsatmagan joyimiz qolmadi. O‘zi endi ikki yoshdan oshdi. Lekin shuncha kasallik... Mana bu yerda yozilgan hammasi.

Ayol chap qo‘lidagi “kitob”ning yuzini ko‘rsatdi. Bu qalin kitob yuziga katta qilib bosma harflarda “История болезни” – “Kasalliklar tarixi daftarchasi” deb yozilgan, pastrog‘ida qo‘lyozmada kichik harflarda bolaning ism-familiyasi qoralangan edi.

Ayol bilan yana ozroq gurunglashib, go‘dakning otasi paxta dalasida zaharli ximikatlar bilan ishlashini, xotin ham eriga ko‘makchi ekanini bilib oldim.

Men alam bilan ona-bolaga qaradim. Endi ikki yoshdan oshgan bolaning “Kasalliklar tarixi daftarchasi” bir jild kitobday kelardi. Qayg‘u kitobiday...

O‘sha vaqtlar olti million tonna paxta yetkazib berish evaziga onalar ko‘ksidagi sut buzilgan, bolalar esa “Butifos”, “Dost” kabi ximikatlardan qonigacha zaharlanib bo‘lgan edi. Sut va qon buzilishi misli ko‘rilmagan milliy fojia edi.

Men saksoninchi yillardagi maktabda o‘qitiladigan “O‘zbekiston SSR tarixi” darslik kitobini ko‘rganman. O‘qiganman ham. Gap shundaki, o‘sha “O‘zbekiston SSR tarixi” kitobidan ko‘ra, men ko‘rgan ikki yashar bolaning “Kasalliklar tarixi” kitobi hajman ikki-uch baravar kattaroq edi.

Keyinroq o‘sha voqeadan ta’sirlanib “Butifos” degan she’r yozgan edim:

Endi ikki yoshga to‘lgan bolaning
“Kasalliklar tarixi daftarchasi” bor.

Varaqlari qavat-qavat daftarchasi bor,
Og‘riqlari savat-savat daftarchasi bor.

Og‘rinib chayqalar oltin beshiklar,
Mung‘ayar qovushgan oshiq-ma’shuqlar.

Og‘ir-og‘ir toshlari bor daftarchasi bor,
Qanoti yo‘q qushlari bor daftarchasi bor.

Bir boshni silashga daholar qo‘lsiz,
Bir so‘zni aytishga sinolar tilsiz.

Kul sepilgan yo‘llari bor daftarchasi bor,
Pushti kuygan gullari bor daftarchasi bor.

Har gal mustaqillik va ozodlikning mohiyati haqida gap ketganda, negadir o‘sha “qayg‘u kitobi” ko‘z oldimga kelaveradi.

Eshqobil SHUKUR

TILBILIM

QULLUQ VA QUTLUG‘

– Qulluq bo‘lsin!

– Qulluq, qulluq, – deymiz qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib.

Lekin “qulluq”qa javoban nega “qulluq” deyilishini o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Bir qarashda birinchi va ikkinchi jumladagi “qulluq” bir so‘zday, lekin birinchi “qulluq” aslida “qutlug‘”, singarmonizm ta’sirida keyinchalik “qulluq”qa aylangan, shevalarda bu so‘z “qulli”, “qullig‘” deb ham aytiladi, qozoq va qirg‘izlarda – “qutti”, uning o‘zagi qadimgi turkiy so‘z – “qut”, Kosh-g‘ariy bobomiz unga “Devonu lug‘otit-turk”da shunday izoh beradi:



“Qut – baxt, davlat. “Qutlug‘” ham shu so‘zdan yasalgan. She’rda shunday kelgan:

Qut quvïg‘ bərsä iźim qolïӈa,
Ko‘ndä ïshï jo‘ksäbän juqar ag‘ar, –

Ma’nosi: “Baxt-u omad bersa Egam quliga, kunda ishi yuksabon, yuqori ko‘tarilar” (DLT.I.311). “Devon”da boshqa bir she’rda “qutlug‘” so‘zi “barakali, qutli” ma’nosida kelgan: “Qïshqa ətin, kəlsä qalï qutlug‘ jaj”, – “Qishga tayyorlan, kelsa agar barakali yoz” (DLT.I.111).

Umuman, “qut” so‘zi ilgari nihoyatda faol bo‘lgan, undan “qutaldi”, “qutatti” (“qutli bo‘ldi”) kabi fe’llar, “qutandï” (“qutlangan”), “qutadg‘u” (“qutga eltuvchi”) kabi sifatdoshlar ham yasalgan. Hozir ham “qutlamoq”, “qutlov” kabi so‘zlarni qo‘llaymiz.

Xullas, birinchi “qullug‘”imiz aslida – “qutlug‘”, endi ikkinchi “qulluq”qa kelsak, uning o‘zagi – “qul” va “Devon”da unga: “Qul jag‘ï ït böri”, – “qul – yog‘iy, ya’ni dushman, it – bo‘ri”, maqoli keltiriladi. Bu maqol qul hech qachon egasiga do‘st bo‘lmaydi, imkon topsa uning molidan olib, qochish payiga tushadi, it ham yeydigan narsa topsa undan o‘zini tiya olmaydi, degan ma’noda aytilgan (DLT.I.324).

“Qul” deganda dastlab umuman erkinliklarga ega bo‘lmagan eng quyi tabaqa vakili tushunilgan, ammo keyinchalik bu so‘z falsafiy ma’no kashf eta boshlagan, masalan, “Qutadg‘u bilig”da “qul” – “Allohning quli”, “banda” ma’nosida kelgan:

“Kerək emdi qulqa əzi qulluqin
Tγgəl qilg‘u bulsa bayat tavfiqin”, –

Ma’nosi: “Banda Tangri tavfiqiga erishgan bo‘lsa, endi u o‘z bandalik burchini tugal bajarishi kerak” (QB.1971.722).

Keyinchalik tasavvufda “qul” muhim istilohga aylandi, xususan turk mashoyixlari va ularga ergashgan shoirlar “Allohning quli” bo‘lishni yuksak maqom bilib o‘zlarini, deylik, Qul Xoja Ahmad, Qul Ubaydiy kabi atadilar. Boburning bir g‘azalidagi: “Shahmen elga, vale senga quldurmen”, satri ham shu ma’noda. Navoiy asarlarida ham “Shohkim matlubig‘a qulluq buyurg‘ay, ishq emas”, kabi misralar ko‘p uchraydi. Maxtumquli, Qurbonquli, Qulmuhammad kabi “qul”ning kishi otlariga qo‘shish udumi ham Islomdan keyingi davrlarda boshlangan.

Shunday qilib, o‘tgan asrlarda “qul” so‘zi ikki qarama-qarshi qutbni: to‘g‘ri ma’noda – erksiz, tutqun shaxsni; ko‘chma, falsafiy-tasavvufiy ma’noda – yuksak ma’naviy maqomni bildiradigan bo‘ldi, borgan sari avvalgi salbiy ma’no kuchsizlanib, falsafiy ma’no quyuqlasha bordi, Allohning quli bo‘lish – bu sharaf, baxt, shu nuqta-



da “qul” so‘zi hatto “baxt”, “davlat” ma’nosidagi qadimiy turkiy so‘z – “qut”ga yaqinlashib qoldi.

“Qulluq” so‘zining ham dastlabki ma’nosi – qullik, erksizlik, tutqunlik, lekin Allohga qullik qilish – bu sharaf, keyinchalik bu bo‘yoq uning ijtimoiy ma’nosiga ham ko‘chgan. “Qulluq” aslida “qulluq qilmoq” iborasining qisqartmasi, ya’ni hukmdor sinf vakiliga minnatdorchilik bildirish uchun “qul bo‘lib xizmatingizni qilaman” degan ma’noda “qulluq qilaman”, “qullug‘ingizni qilaman” deyilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday izoh beriladi: “qulluq – 1. Minnatdorlikni ifodalovchi so‘z; rahmat, minnatdorchilik; qulluq qilmoq – qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib minnatdorchilik izhor qilmoq, ta’zim qilmoq: “Hasan ovchi darvozagacha qulluq qilib, orqasi bilan yurib bordi va posbonlar qarshisida o‘zini rostladi. Sh.Toshmatov. Erk qushi” (O‘TIL.II.1981.616). Mazkur misolni qulluq qilish odobi yoki etiketining klassik namunasi deyish mumkin.

Bugun esa “qulluq” deganda kimningdir xizmati, “qulligi”ni qilish tushunilmaydi, balki hozirda uning faqat “rahmat”, “minnatdorchilik” ma’nosi saqlanib qolgan. Endi yana so‘zimiz boshida keltirilgan misolga e’tibor qaratamiz:

– Qulluq bo‘lsin (qutlug‘, qutli, baxtli, barakali, davlatli bo‘lsin)!

– Qulluq (rahmat, minnatdorman)!

Abduvohid HAYIT

TARMOQLARDA NIMA GAP?

ILTIMOS...

Har safar qishloqqa kelganimda, ko‘plab maqsadsiz yashayotgan odamlarni ko‘raman.

Yillab musofir yurtda qulday ishlab qaytgach, magazin va oshxonalarga ko‘rpa-yostiq qilib yotvolib, so‘nggi tiyini qolguncha, ba’zi ashaddiylari esa millionlab qarzga botib, shishani ko‘taradigan odamlarni ko‘raman.

Xudodan tilab olgan dilbandining kitobini, kiyar kiyimini, rizqini “xarobot ahli”g‘a ichirib, gazak qilayotgan hayfi otalarni ko‘raman.

Kechasi yarim tungacha ichib, oyoq va tildan qolgach xotini va bolasi yetaklab ketayotgan “tetapoya”larni ko‘raman.

...Do‘stim, sening ham maqsadlaring ulkan edi. Sen maktabda hammamizdan ikki barobar kuchli eding. Matematikada sendan ko‘chirib, “5” olardim. Hisob-kitoblarda beqiyos eding. Bugun qaysidir bir burchakda xo‘jayining beradigan kunlik choychaqaning hisobini chiqarolmay o‘tiribsan.

...Fizika darsida o‘zi uchadigan uchoq yasab kelganing, butun maktabni lol qoldirganing esimda. Kosmosga ucha oladigan layoqating bor edi.

Bugun qaysidir bir Xudo qarg‘agan joyda samagon ichib, “uchib” yotgandirsan...

Kimyoda birinchi bo‘lib Mendeleyev jadvalini yod olganing, molekulyar massalarni ko‘zingni yumib sharhlab berganing kechagidek ko‘z o‘ngimda.


Esla, do‘stim, bolaligingda dadang senga qaysi muhim gapni uqtirmagan edi?! O‘sha aytilmagan so‘zni esla...

Iltimos, o‘sha gapni bolangga ayt!


Doston RAHMAT
Facebook

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI




LOKDAUN – aholining ma’lum bir hududda harakatlanishi va shu kabi boshqa cheklovlar kiritilishi natijasida yuzaga keladigan holat. Aksar hollarda bunday cheklov odamlar orasida epidemiyalar tarqalganda qo‘llanadi. Ayni vaqt davomida aholi o‘z uyidan chiqmasligi vaqtincha qat’iy tartibda belgilab qo‘yiladi.



AVTO-TO‘LOV – avtomatik shaklda shaxsiy to‘lov karta va boshqa hisob raqamlardan amalga oshirilgan xizmat uchun pul yechib olinadigan to‘lov turi. Ushbu to‘lov shaklining afzalligi belgilangan sanada to‘lov avtomatik ravishda amalga oshirib borilishidadir.



AMBASSADOR – ma’lum bir ishlab chiqaruvchining mahsuloti yoki xizmat ko‘rsatish sohasidagi mashhur brendning taniqli targ‘ibotchisi, lekin u ushbu brend taalluqli kompaniyada rasman ishlamaydi. O‘rtadagi o‘zaro kelishuvga asosan, brendning norasmiy vakili vazifasini ado etadi. Brendga oid qadriyatlarni odamlarga yetkazishi natijasida iste’molchilar ushbu xizmat turi yoki mahsulotni aniqlaydi.



BOTOKS – bu neyrotoksin inson tanasi, xususan, yuzdagi ajinni yo‘qotish va lab qismini kattalashtirib shishirish maqsadida mushaklarga yuboriladi. U mushaklarni bo‘shashtirib, yuz terisini tekislaydi. Botoks yuz terisining ajinlarsiz, yosh va silliq holatda ko‘rinishiga yordam beradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, botoks dinamik ajinlar paydo bo‘lishini sezilarli darajada kamaytirarkan. Botoks ambulator sharoitda, hech qanday jarrohlik usulisiz, qisqa fursatda amalga oshiriladi.

Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5983
Lotin yozuvidagi adadi – 11931
Media kuzatuvchilar – 17060
Buyurtma: G – 740.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.